

ISSN 2223-4047

# ВЕСТНИК

## МАГИСТРАТУРЫ

6-1, 2024

*научный журнал*

# **ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ 2024**

**6-1 (153)**

**Научный журнал**

издается с сентября 2011 года

---

**Учредитель:**

ООО «Коллоквиум»

Полное или частичное воспроизведение материалов, содержащихся в настоящем издании, допускается только с письменного разрешения редакции.

**Адрес редакции:**

424002, Россия,  
Республика Марий Эл,  
г. Йошкар-Ола,  
ул. Первомайская, 136 «А».  
тел. 8 (8362) 65 – 44-01.  
e-mail: magisterjourn@gmail.com.  
<http://www.magisterjournal.ru>.  
Редактор: Е. А. Мурзина  
Дизайн обложки: Студия PROekT  
Перевод на английский язык  
Е. А. Мурзина

Распространяется бесплатно.

Дата выхода: 15.06.2024 г.

ООО «Коллоквиум»  
424002, Россия,  
Республика Марий Эл,  
г. Йошкар-Ола,  
ул. Первомайская, 136 «А».

**Главный редактор Е. А. Мурзина**

**Редакционная коллегия:**

**Е. А. Мурзина**, канд. экон. наук, доцент (главный редактор).

**А. В. Бурков**, д-р. экон. наук, доцент (г. Йошкар-Ола).  
**Б. В. Носов**, д-р. экон. наук, профессор (г. Москва)  
**Б. А. Каракинов**, д-р. техн. наук, профессор (г. Великий Новгород)  
**Н. М. Насыбуллина**, д-р. фарм. наук, профессор (г. Казань)  
**Р. В. Бисалиев**, д-р. мед. наук, доцент (г. Астрахань)  
**В. С. Макеева**, д-р. педаг. наук, профессор (г. Орел)  
**Н. Н. Сентябрев**, д-р. биолог. наук, профессор (г. Волгоград)  
**Н. С. Ежкова**, д-р. педаг. наук, профессор (г. Тула)  
**И. В. Корнилова**, д-р. истор. наук, доцент (г. Елабуга)  
**А. А. Чубур**, канд. истор наук, профессор (г. Брянск).  
**М. Г. Церцвадзе**, канд. филол. наук, профессор (г. Кутаиси).  
**Н. В. Мирошниченко**, канд. экон. наук, доцент (г. Саратов)  
**Н. В. Бекузарова**, канд. педаг. наук, доцент (г. Красноярск)  
**К. В. Бугаев**, канд. юрид. наук, доцент (г. Омск)  
**Ю. С. Гайдученко**, канд. ветеринарных наук (г. Омск)  
**А. В. Марьина**, канд. экон. наук, доцент (г. Уфа)  
**М. Б. Удалов**, канд. биолог. наук, науч. сотр. (г. Уфа)  
**Л. А. Ильина**, канд. экон. наук. (г. Самара)  
**А. Г. Пастухов**, канд. филол. наук, доцент, (г. Орел)  
**А. А. Рыбанов**, канд. техн. наук, доцент (г. Волжский)  
**В. Ю. Сапьянов**, канд. техн. наук, доцент (г. Саратов)  
**О. В. Раецкая**, канд. педаг. наук, преподаватель (г. Сызрань)  
**А. И. Мосалёв**, канд. экон. наук, доцент (г. Муром)  
**С. Ю. Бузоверов**, канд. с-хоз. наук, доцент (г. Барнаул)

## **СОДЕРЖАНИЕ НОМЕРА**

### **ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ**

*A. Mavlonov, S. Mirzohidov O'ZBEK AYOLLARINING JAMIYATDA O'Z O'RINLARINI TOPISHI – KELAJAK AVLODNING POYDEVORIDIR* .....3

*Ж. Ниёзов, М. Нурмирзаева ХЕРМАН ВАМБЕРИНИНГ «БУХОРО ЁХУД МОВА УННАХР ТАРИХИ» АСАРИДА АМИР ТЕМРНИНГ БУНЁДКОРЛИК ИШЛАРИ ТАВСИФИ* .....7

### **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**

*K. Irisbayeva, R. Shokirova INTELLEKT TUSHUNCHASINI O'RGANISHDA NAZARIY VA METODOLOGIK YONDOSHUVLAR* .....9

*Z. Latibjonova, M. Yoqubjonova VERBAL MULOQOT VOSITASI RIVOJLANMAGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK VA PEDOGOGIK XUSUSIYATLARI* .....11

*Z. Latibjonova, N. Baxromova RINOLALIK BOLALAR BILAN OPERATSIYADAN KEYINGI OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISH* .....13

### **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**

*M. Axmadaliyev, L. Madaminova RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI PSIXO-PEDAGOGIK TASHXIS QILISHNING NAZARIY METODOLOGIK TAMOYILLARI* .....16

*M. Jurayeva, R. Po'latova MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TARBIYALANUVCHILARINI MAKTABGACHA TA'LIMGA MOSLASHTIRISHDA KREATIV YONDASHUV* .....18

*D. Mirzabdullayeva, Sh. Xaydaraliyeva YOSH AVLODNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH VA MADANIYAT SOHASINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH MASALALARI* .....21

*D. Mirzabdullayeva, H. G`ulomova, D. Otamjanova SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM-TARBIYA HAQIDAGI FIKRLARI VA OILA TARBIYASINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI* .....23

*M.Q. G'iyyosiddinov, M.X. Vohidova DARS JARAYONIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARIN FOYDALANISHNING AHAMIYATI* .....26

*M.Q. G'iyyosiddinov, H.Sh. Mashrabboyeva NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI TASNIF VA UALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION- PEDAGOGIK ISHLAR* .....29

*M.Q. G'iyyosiddinov, M.Sh. Shokirova TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI* .....31

*K.M. Irisbayeva, O.I. Ismoilova ZAMONAVIY O'QITUVCHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MODELI* .....33

*N.A. Isroilova, S.O. Nurmuhammadova MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING AHAMIYATI* .....35

*N.A. Isroilova BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIMNING AHAMIYATI* .....38

*N.A. Isroilova, T.B. Abdusakimova MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA IJODIY SIFATLARNI SHAKILLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM* .....40

### **ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**

*A.A. Mavlonov, I.N. Raҳимжонова ТИЛ МАСАЛАСИ – МАҶНАВИЙ МУСТАҚИЛЛИКНИНГ АСОСИЙ ШАРТИ СИФАТИДА* .....42

*Информация для авторов* .....47

И  
С  
Т  
О  
Р  
И  
Ч  
Е  
С  
К  
И  
Е

## **НАУКИ**

**A. Mavlonov, S. Mirzohidov**

### **O'ZBEK AYOLLARINING JAMIYATDA O'Z O'RINLARINI TOPISHI – KELAJAK AVLODNING POYDEVORIDIR**

*Mazkur maqola o'zbek ayollarining tarixiy va zamonaliviy jamiyatdagi o'rnnini yoritadi. Tarixiy shaxslar To'maris, Robiya Sulton begim, va Nodirabeginning misollarida ayollarning o'z xalqini himoya qilish, siyosiy va madaniy rivojlanishdagi rolini ko'rsatadi. Jadidchilarning islohotchi harakati ayollarning ilm olishi va jamiyatda faol bo'lishini targ 'ib qilgani haqida so'z yuritiladi. Bugungi kunda o'zbek ayollarining ta'lim va ilm-fan orqali shaxsiy va kasbiy rivojlanishlari, ijtimoiy va siyosiy faoliyatlarida muvaffaqiyat qozonishlari, oilaviy hayotda va iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynashlari ta'kidlanadi. Maqolada ta'lim va ilm-fanning ayollar uchun ahamiyati hamda bu orqali jamiyatning barqaror va taraqqiy etgan bo'lishiga qo'shadigan hissasi tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** O'zbek ayollari, tarixiy shaxslar, ilm-fan, ta'lim, jadidchilik harakati, siyosiy faoliyat, ijtimoiy faoliyat, iqtisodiy rivojlanish, madaniy mero.

Qadimdan to hozirgi davrgacha o'zbek ayollari o'zining sabr-matonati, jozibadorligi, ziyoliligi bilan dunyo xalqlarining ong-u shuvurini chuqur muxabbatga undamoqda. Ular tarixning oltin zarvaraqlarida o'chmas va abadiy, kelajakda faxr bilan yodga olinsa arziyidigan izlarni muxirlaganlar. Tariximizda zarur shart-sharoitlarda birisi qo'liga qalam olgan bo'lsa birisi o'tkir tig'li qilich bilan jang qilgan. Yuqorida fikrga To'maris yaqqol misol bo'la oladi. Tomaris (miloddan avvalgi VI asr) – Turon xalqlarining axamoniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur ayol sarkardadir. U eri vafotidan keyin Turon zaminidagi massaget qabilasini malika sifatida boshqargan<sup>1</sup>. Miloddan avvalgi 530-yilda ahamoniylar davlati asoschisi Kir II ning massagetlar Vataning qilgan

---

© A. Mavlonov, S. Mirzohidov, 2024.

<sup>1</sup> «Геродот. История в девяти книгах». Губер А.А. -Л.:Наука,- 1972 -C.78

bosqinchilik yurishida mardonavor kurashib ahamoniylarni ma'lum muddat Turon zaminiga kiritmagan. U o'z xalqini himoya qilishda ulkan jasorat ko'rsatgan.

To'maris ajdodi, Turon zaminining aql zakovatli ayoli Robiya Sulton begim Temuriylar sultanati davlat arbobi Ulug'bekning qizidir.<sup>1</sup> U 1430-yillarning o'rtalarida poytaxt Samarqandda tug'ilgan, deb taxmin qilinadi.<sup>2</sup> Robiya Sulton Turon ayollariga hos go'zallik, joziba, alq-zakovat, siyosatdaadolatli va Vatan kelajagi uchun jonini fido qilguvchi ayol hisoblanadi. Robiya Sultonning davlat siyosatidagi kuchli pozitsiyasi otasi Ulug'bek o'z og'li Abdulatif tomonidan 1449-yilda qatl qilingan davrda ko'rindi.<sup>3</sup> Hokimiyatni Robianing amakivachchasi Abdulla ibn Ibrohim qo'lga kiritgan, u ilgari ichki nizolarda Ulug'bek tarafida bo'lgan va qamoqdan ozod etilgan. Ammo 1451-yilda Temuriylar hukmdori Abu Said ko'chmanchi o'zbeklar hokimi Abulkayrxon yordami bilan Abdullani mag'lubiyatga uchratib, uni qatl etgan. Abu Said qo'shini bilan birinchi bo'lib Samarqandga kirib, o'zbeklarga shaharni talon-taroj qilishga ruxsat bermagan va bu hodisadan keyin ittifoqchini tinchlantirish maqsadida Rabiyani (o'zining amakivachchasi) unga sovg'a qilgan. Shunday qilib, Robia Abulkayrxonning to'rtinchi xotini bo'lgan. Amerika olimi Ollvorsning ta'kidlashicha, Rabia Sulton-begim "Shayboniylar va Temuriylarni qarindoshlik rishtalari bilan bog'lagan va ikki raqobatlashayotgan guruhrar o'rtasida siyosiy ittifoq yaratgan". Robianing Abulkayrdan uchta o'g'li bo'lgan: Ko'chkunchixon, Suyunchxo'ja-xon va Oq-Burun-sulton. Robia Sulton-begim xalq orasida hurmatga sazovor bo'lgan va siyosatda katta ta'sirga ega bo'lgan. Masalan, u o'zining jiyani Muhammad Jo'kiga Samarqand uchun Abu Saidga qarshi kurashda yordam so'raganida yordam bergan. Abulkayr uni rafiqasining qarindoshi sifatida iliq kutib olgan va yordam berishga rozi bo'lgan.<sup>4</sup> Erining 1468 (yoki 1469) yildagi o'limidan so'ng, u Turkiston shahrida yashagan va 1485 yilda vafot etgan. Rabianing qabrtoshida "u ezgu ishlari bilan mashhur va oljanobligi bilan ajralib turardi" deb yozilgan. Robiya Sulton Begim va uning oilasi Temuriylar davrida madaniyat, ilm-fan va san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Ularning homiyligi ostida ko'plab olimlar, shoirlar va san'atkorlar faoliyat yuritgan. Robiya Sulton Begimning hayoti va faoliyati haqida ko'plab tarixiy asarlar yozilgan. Uning merosi va madaniy faoliyati nafaqat Temuriylar davlati, balki butun Markaziy Osiyo tarixida katta ahamiyatga ega.

Yana bir O'zbekning matonatli ayoli Mohlaroyimdir. Mohlaroyim 1792-yilda Andijonda tug'ilgan, otasi Andijon hokimi Rahmonqulbiy – o'zbeklarning ming qabilasidan, Farg'ona hukmdori Olimxonning tog'asi. Olimxon ukasi Umarxonga Marg'ilon hokimligini beradi va uni 1807-yilda Nodiraga uylantiradi.<sup>5</sup> Nodira so'ngra she'r yozishni mashq qiladi, shoira Uvaysiy bilan tanishadi, uni muallima sifatida saroyga taklif etadi. Nodiraning turmush yo'ldoshi Amir Umarxon ham Amiriy taxallusida ijod qilgan. 1810-yilda akasi Olimxon o'rniga taxtga chiqqan Umarxon bilan Qo'qonga keladi.<sup>6</sup> 1822-yil Umarxonning fojeali vafotidan so'ng o'g'li Ma'dalixon bilan birga Qo'qon xonligini boshqaradi. Madrasa, masjid, karvonsaroylar qudirradi<sup>7</sup>. Ilm ahliga rahnamolik, faqirlarga homiylik qiladi. 1822-yilda Umarxon vafot etib, uning o'g'li, 14 yoshli Muhammad Alixon (Ma'dalixon) taxtga ko'tarildi. Lekin davlatni, asosan, Nodiraning o'zi idora qildi. U madaniyat va san'atni rivojlantrishga intildi. Nodira bozor va rastalar, masjid va madrasalar, karvonsaroylar qurilishiga e'tibor bergan.<sup>8</sup> Go'ristoni kalondagi Madrasai Chalpak, Taqagarlik rastasidagi Moxlaroyim madrasasini bino ettirgan. Buxoro amirligi hukmdori Amir Nasrulloh 1842-yilda Qo'qonni egallab, Ma'dalixonni, ukasi Sulton Mahmudxonni, 14 yashar o'g'li Muhammad Aminxonni va Nodirani o'limga hukm etadi. Nodirabegim hayotlik chog'ida olib borgan faol siyosati va ijodiyoti bilan bugungi kunda o'zbek ayollariga o'rnak bo'la oladi.

O'zbek jadidchiligi - XX asr boshlarida O'rta Osiyoda yuzaga kelgan islohotchi harakat bo'lib, uning vakillari ayollarning ilm olishini muhim deb hisoblashgan. Jadidlar orasida o'z asarlarida bu masalani ko'tarib chiqqan ko'plab taniqli olim, yozuvchi va shoirlar bor. Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, o'zining "Padarkush" dramasida ayollarning ilm olishi va ma'rifatli bo'lismeni targ'ib qilgan. Uning asarlarida ayollarni ma'rifatli qilish orqali jamiyatni yuksaltirishga urg'u berilgan. Behbudiy ta'limning

<sup>1</sup> Государство кочевых узбеков - Ахмедов Б.А.-М.:Наука,-1965-С.184

<sup>2</sup> Мустапаева Д.У. О личности женщин, похороненных в мавзолее Ходжи Ахмеда Ясави // Наука и мир. — 2017. — Т. 1, № 5(45). — С. 69-71.

<sup>3</sup> "The Empire of the Steppes: A History of Central Asia" - René Grousset.-New Brunswick, New Jersey.:RUTGERS UNIVERSITY PRESS,-1970-P.460

<sup>4</sup> Государство кочевых узбеков - Ахмедов Б.А.-М.:Наука,-1965-С.137

<sup>5</sup> Воҳид Абдуллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. 2-китоб. Т., “Ўқитувчи” наприёти, 1967-Б.318.

<sup>6</sup> Азамат Зиё. Узбек Давлатчилиги Тарихи. Энг кадимги даврдан Россия боскинига кадар. Т.: "Шарқ" наприёт-матбаа аксиядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001-Б.292

<sup>7</sup> Mavlonov, A. (2021, June). WATER CULT IN ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS (Based on materials from the Fergana Valley). In Конференции.

<sup>8</sup> МАҲБУБА ҚОДИРОВАД А В Р Н О Д И Р А С И. (НОДИРАНИНГ ҲАЁТ ВА ИЖОД НУЛИ) Т.·УЗБЕҚИСТОН ССЖ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИНИНГ «ФАН» НАШРИЕТИ, 1991-Б.77

muhimligini tushungan va uni rivojlantirish tarafdoi bo'lgan.<sup>1</sup> Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ham o'z kasbdoshlari fikrlarini maqullaydi. Cho'lpon, o'zining she'r va hikoyalarida ham ayollarning ilm olishiga alohida e'tibor qaratgan. U "Kecha va kunduz" romani orqali ayollarning ta'lim olish huquqlarini himoya qilgan va ularning jamiyatdagi o'rnnini yuksaltirishga intilgan.<sup>2</sup> Cho'lpon, ayollarning ilm olishi orqali o'z taqdirlarini o'zlar boshqarishi kerakligini ta'kidlagan. Fitrat, "Hind ixtilochilar" asari orqali ayollarning ilm olishini yuksak qadrlagan va bu orqali jamiyat taraqqiyotini ko'zlagan.<sup>3</sup> Uning asarlarida ayollarning ta'lim olish huquqlari va ularning jamiyatdagi roli haqida chuqur mulohazalar keltirilgan. Fitrat, ayollarning ta'lim olishini milliy yuksalishning muhim bir qismi sifatida ko'rgan. Jadidlarning barchasi umumiy maqsad - jamiyatni yuksaltirish uchun ayollarning ilm olishi va ta'limini targ'ib qilganlar. Ular, ayollarning ma'rifatli bo'lishi orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish mumkinligiga ishonishgan va bu fikrlarni o'z asarlarida keng yoritishgan.

Yuqorida ko'rganimizdek o'zbek ayollarini ziylolashtirish qadimdan bugubga qadar davom etmoqda. Bugungi kunda esa o'zbek ayollarining jamiyatda o'z o'rnnini topishlari va rivojlanishlari uchun ilmning roli juda katta ahamiyatga ega. Ilm-fan va ta'lim ayollarning imkoniyatlарни kengaytiradi, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishlariga yordam beradi<sup>4</sup> va jamiyatning barcha sohalarida ularning faolligini oshiradi. Quyida ilmning o'zbek ayollarining jamiyatda o'r'in topishlaridagi roliga oid ba'zi jihatlar keltirilgan:

#### Shaxsiy Rivojlanish

– Ta'lim va Bilim: Ta'lim olish orqali ayollar ko'proq bilimga ega bo'llib, o'z qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va mustaqil qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

– Kasbiy Faoliyat: Ta'lim va ilmiy bilimlar ayollarga turli kasblarda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalmarni beradi. Bu ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi va oilaviy hayotlarida ham katta yordam bo'ladi.

#### Jamiyatdagi Faollik

– Ijtimoiy Faollik: Bilimli ayollar jamiyatdagi muammolarni anglab, ularni hal qilishda faol ishtirot etadilar. Ular turli ijtimoiy loyihalar, notijorat tashkilotlar va jamoat harakatlarida yetakchilik qilishi mumkin.

– Siyosiy Faollik: Ta'limli ayollar siyosiy maydonga kirib, jamiyatni boshqarishda faol ishtirot etadilar. Ular qonun chiqaruvchi organlarda ishlashlari va siyosiy qarorlar qabul qilishda qatnashishlari mumkin.

#### Oilaviy Hayotdagi Rol

– Farzand Tarbiyasi: Bilimli ayollar farzandlariga sifatli ta'lim berib, ularning yaxshi tarbiya olishlariga yordam beradi. Bu keyingi avlodning ham bilmal va madaniyatli bo'llib o'sishiga hissa qo'shadi.

– Oilaviy Qadriyatlar: Ta'limli ayollar oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda muhim rol o'yaydi. Ular oilaviy muhitni sog'lom va madaniyatli bo'lishiha hissa qo'shadi.

#### Iqtisodiy Rivojlanish

– Mehnat Bozorida Faollik: Bilimli ayollar mehnat bozorida yuqori malakali ishchilar sifatida faoliyat yuritib, mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo'shadilar. Ular tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari va yangi ish o'rnlari yaratishlari mumkin.

– Innovatsiya va Texnologiya: Ilm-fan va texnologiya sohalarida ayollarning ishtiroti innovatsiyalar yaratishda muhimdir. Ular yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishda katta hissa qo'shishi mumkin.

#### Madaniyat va San'atda

– Adabiyot va San'at: Bilimli ayollar adabiyot, san'at va madaniyat sohalarida ijod qilish orqali jamiyatning madaniy boyligini oshiradi. Ular o'z asarlari orqali jamiyatga ta'sir o'tkazishi mumkin.

– Madaniy Merosni Saqlash: Ayollar milliy madaniyat va an'analarini saqlash va rivojlantirishda faol ishtirot etadilar.

O'zbek ayollari uchun ilm-fanning ahamiyati beqiyosdir. Ilm orqali ular nafaqat o'z shaxsiy va kasbiy hayotlarida muvaffaqiyat qozonadilar, balki jamiyatning barcha sohalarida faol ishtirot etib, uning rivojlanishiga katta hissa qo'shadilar. Bu esa umumiy ravishda jamiyatning yanada barqaror va taraqqiy etgan bo'lishiga olib keladi.

**Xulosa:** O'zbek ayollari qadim zamonalardan to bugungi kungacha jamiyatda muhim rol o'ynab kelmoqda. To'maris, Robiya Sulton begim va Nodirabegim kabi tarixiy shaxslar o'z jasorati va siyosiy faolliklari bilan ajralib turadi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati ayollarning ilm olishini va ma'rifatli bo'lishini targ'ib qilgan. Bugungi kunda esa ta'lim va ilm-fan o'zbek ayollarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida, ijtimoiy va siyosiy faoliyatlarida katta ahamiyatga ega. Bilimli ayollar jamiyatning turli sohalarida faol ishtirot etib, uning

<sup>1</sup>Падаркуш (драма). (Туркистон маишатидан олинган ибратнома). 3 парда 4 манзарали, миллий биринчи фожиа. Б.40

<sup>2</sup> Cho'lpon. Kecha va Kunduz. Roman. T.: Akademnashr, 2020

<sup>3</sup> Вадуд Махмуд. «Ҳинд ихтиолчилари». Театр китоби. А.Фитрат асари

<sup>4</sup> A. Mavlanov, & S. Mirzohidov (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. Science and innovation, 3 (C1), 5-7. doi: 10.5281/zenodo.10471818

rivojlanishiga ulkan hissa qo'shmoqda. Shu tariqa, ilm-fan va ta'lim ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, jamiyatning barqaror va taraqqiy etgan bo'lishiga xizmat qilmoqda.

*Foydalaniłgan adabiyotlar:*

- 1.«Геродот. История в девяти книгах».Губер А.А. -Л.:Наука,- 1972 -С.78
- 2.Государство кочевых узбеков - Ахмедов Б.А.-М.:Наука,-1965-С.184
- 3.Мустапаева Д.У. О личности женщин, похороненных в мавзолее Ходжи Ахмеда Ясави // Наука и мир. – 2017. – Т. 1, № 5(45). – С. 69-71.
- 4."The Empire of the Steppes: A History of Central Asia" - René Grousset.-New Brunswick, New Jersey.:RUTGERS UNIVERSITY PRESS,-1970-P.460
- 5.Государство кочевых узбеков - Ахмедов Б.А.-М.:Наука,-1965-С.137
- 6.Воҳид Абдуллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. 2-китоб. Т., “Ўқитувчи” нашриёти, 1967-Б.318.
- 7.Азамат Зиё.Ўзбек давлатчилиги Тарихи. Энг кадимги даврдан Россия боскинига қадар. Т.:“Шарқ” нашриёт-матбаа аксиядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001-Б.292
- 8.МАХБУБА ҚОДИРОВА. ДАВР НОДИРАСИ.(НОДИРАНИНГ ҲАЁТВА ИЖОД ПУЛИ).Т.:УЗБЕҚИСТОН ССЖ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИНИНГ «ФАН» НАШРИЕТИ, 1991-Б.77
- 9.Падаркуш (драма). (Туркистан майшатидан олинган ибратнома). 3 парда 4 манзарали, миллий биринчи фожиа. Б.40
- 10.Cho'pon. Kecha va Kunduz. Roman. T.: Akademnashr,2020
- 11.Вадуд Махмуд. «Ҳинд ихтиолчилари».Театр китоби. А.Фитрат асари
- 12.Mavlonov, A. (2021, June). WATER CULT IN ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS (Based on materials from the Fergana Valley). In Конференции.
- 13.A. Mavlonov, & S. Mirzohidov (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. Science and innovation, 3 (C1), 5-7. doi: 10.5281/zenodo.10471818

---

MAVLONOV A. – Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti, Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasи, Katta o'qitu-vchisi.

MIRZOHIDOV S. –Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti, talaba.

**Ж. Ниёзов, М. Нурмирзаева**

## **ҲЕРМАН ВАМБЕРИНИНГ «БУХОРО ЁХУД МОВАУННАХР ТАРИХИ» АСАРИДА АМИР ТЕМРНИНГ БУНЁДКОРЛИК ИШЛАРИ ТАВСИФИ**

*Мақолада Ҳерман Вамберининг Ўрта Осиёга саёҳати ва унинг Амир Темур шахсияти ва бунёдкорлик ишлари ҳақида ўз кўзи билан кўрган бтлгандарини баёни акс этган. Бундан ташқари сайёх Амир Темурнинг ҳарбий юришиларига ҳам тўхталиб ўтган. Мақола Амир Темур даврини ёритишда муҳим маънба бўлиб хизмат қилиши мумкин.*

XIX асрнинг иккинчи ярмида Туркистон Буюк Британия ва Россия империясининг манфаатлари тўқнаш келган ҳамда минтақага ҳар икки тараф ўз вакилларини турли йўллар билан кириб келишади. Бу вакиллар юртимиз худудини ўрганиб, унинг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий соҳалардаги қимматли маълумотларни ўз эсдаликлари ва асарларида ёзib қолдиришган. Мана шундай шахслардан бири Ҳерман Вамбери ва унинг «Бухоро ёхуд Мовауннахр тарихи»<sup>1</sup>асаридир.

Ҳерман Вамбери 1832 йил 19 марта Австрация-Венгрия империясининг Нидермаркт шаҳрида камбагал яхудий оиласида туғилган. Ҳерман Вамбери умрининг кўп қисмини Истанбулда ўтказади ва шу даврида кўплаб туркча асарларни немис тилига таржима қилади, турк тили ва бошқа туркий тиллар грамматик курилишига доир асарлар яратади. Евросиё қитъасининг жуда катта қисмига тарқалган туркий тилларни ва туркий ҳалқлар цивилизациясининг маркази – Туркистонни яқиндан ўрганиш учун бу ерларга саёҳат қилишга қарор қилади. 1863 йил у Туркистонга йўл олади. Ҳерман Вамбери Маккадан келаётган ҳожилар карвони билан Ўрта Осиёга кириб боради. Уни «Рашид афанди» номи билан чакиришар эди. 1863 йил 29 май куни Ҳерман Вамбери қўшилиб олган карвон Хива хонлиги тупроғига қадам қўяди.<sup>2</sup>

Ҳерман Вамбери 1864 йилнинг охирида “Ўрта Осиё бўйлаб саёҳат” китобини инглиз тилида чиқарди ва Европага машҳур бўлиб кетади. Бир йилдан сўнг Париж орқали ўз ватанига қайтади ва Будапешт университети Шарқ тиллари факултетида профессор лавозимида ишлай бошлайди. Вамбери 1913 йил 15 сентябр куни Будапештда 81 ёшида вафот этган.

Ҳерман Вамбери юртимиз ҳақида кўплаб асарлар ёзib қолдирган. Вамберининг “Ўрта Осиё бўйлаб саёҳат”, “Бухоро ёхуд Мовауннахр тарихи” каби асарларида юртимиз ҳақида маълумотлар берилиган. Айниқса, унинг “Бухоро ёхуд Мовауннахр тарихи” асаридаги: “Арабларнинг ҳужуми, исломни қабул қилиш”, “Мўғуллар истилоси”, “Амир Темур, Темурнинг шахси, саройи ва тураг жойи”, “Темурийлар”, “Ўзбеклар ва Шайбоний Муҳаммадхон” каби мавзулар аҳамиятлидир. Китобда буюк саркарда, адолатли шоҳ ва марказлашган давлат асоачиси Амир Темур ҳақида ҳам маълумотлар берилиган.

Бизга маълумки Амир Темур жуда катта бунёдкорлик ишларини амалга оширган. Бу ишларни Ҳерман Вамбери ўзининг “Бухоро ёхуд Мовауннахр тарихи” асарида қуйидагича баён этади: “Темур ҳар бир муваффақиятни, ҳар бир севинчли воқеани бир месъорлик асарини бунёд этиш билан нишонлашга аҳд қилди. Шу мақсадда Ҳиндистоннинг юзларча моҳир фишт терувчиларини, Шероз, Исфаҳон ва Дамашкнинг машҳур усталарини Мовароуннахрга келтирди, улар гўзал иморатлар курдилар. Мусулмон Осиёси икки юз йил мобайнида турк қўшиларига лашкаргоҳ бўлганига, бу китъада – Темур салтанатида асарлари билан бизни ҳайратта солган рассомлар, месъорлар ва бошқа санъат аҳли доимо ижод қилганига мазкур иморатлар шоҳиддир”<sup>3</sup>. Амир Темур шахсини ёритишда айрим европа олимлари жиддий хатоларга йўл қўйиб, бузғунчи, золим сифатида тасвирлашган. Ана шу маълумотларни рад этган холда Ҳерман Вамбери ўз фикрини давом эттиради “Накадар ваҳший этиб тасвирланган жаҳонгирнинг дилида гўзаллик ва юксакликка муҳаббат шу қадар кучли эдики, бунга унинг даврида яратилган санъат ва месъорий асарлари далилдир. Темур гарчи ўз мамлакатининг бошқа шаҳарларида бинолар куришга амр этса-да, масалан Табризда масжид, Шерозда сарой, Бағдода мадраса, ҳазрат Туркистонда машҳур шайх Аҳмад Яссавий қабри устида мақбара бино қилдирса-да, лекин ўзининг буюк саховат ва химматини Кеш ва Самарканда олий асарларни қурдиришда кўрсатди. Ўзининг она Ватани ва ўзининг мангубутига истироҳатгоҳи

© Ж. Ниёзов, М. Нурмирзаева, 2024.

<sup>1</sup> Ҳерман Вамбери «Бухоро ёхуд Мовауннахр тарихи ». –Т. : Фофор Ғулом. 1990.

<sup>2</sup> www.ziyo.uz Хайрулла Исматуллаев. Вембери олимми, жосус?

<sup>3</sup> Ҳерман Вамбери «Бухоро ёхуд Мовауннахр тарихи ». –Т. : Фофор Ғулом. 1990.-Б 36.

бўлишга тайин қилинган биринчи шаҳарда, отасининг қабри устида олий мақбара бино қилди. Тўнгич ўғли Жаҳонгирга мақбара билан бирга масжид қурди. Ушбу масжиднинг кенг ҳовлисида муллалар фаровон яшаб, мархумларнинг руҳини шод қилиш учун кеча-кундуз Қуръон тиловати ила машғул эдилар. Темур галабалари ва баҳтининг ilk даврида Қеш шаҳрига катта аҳамият бериб, уни Ўрта Осиёning маънавий марказига айлантирган эди. Шу боис бу шаҳар «Куббат ул илм вал адаб» унвонига эга бўлган эди. Хоразмдаги машҳур мадрасаларнинг мударрислари, Бухоро ва Фарғона уламолари яшар эди”<sup>1</sup>.

Тарихдан маълумки хар бир хукмдор ўзига қароргоҳ курдирган. Амир Темур қароргоҳи Оқсарой хақида Ҳерман Вамбери қўйидаги маълумотларни келтиради: “Амир Темур ўзининг пойтахтини ҳам шу ерда қуришни ният қилиб, гўзал Оқсаройни бино эттирган эди. Ўн икки йилдан ортиқроқ вақтда бино қилинган бу сарой Эрон меъморларининг холис ишидир, улар бунда ғарбий ислом услубига содик қолиб, иморат пештоқига доира ва қўёга аломатини тасвирлаганлар. Шунинг билан Турон фотихининг иқоматгоҳи Эрон шоҳларининг аломат белгилари билан безатилган эди. (Темурнинг аломат белгиси ушбу тарзда қўйилган уч ҳалқадан иборат эди. Шиори: «Русти – рости». Бу ибора «Куч – адолатда» маъносини билдиради. Бу аломат унинг уч иқлимда, яъни Шимол, Жануб ва Farrell ҳокимлигига ишора. Бу саройнинг (ўша замондаги бошқа иморатларнинг ҳам) энг кўркам ва олий мақомини унинг пештоқи ташкил этади. Пештоқ бутун иморатнинг юқори қисмини эгаллаган, катта, шакли ярим ойга ўхшайди. Хитой кошинлари, арабий нақшлар, гуллар ва ўймакорлик билан безатилган. Бу кошинлар Қошон шаҳрида ясалгани сабабли – коши деб аталади ва ҳозирги кунда ҳам шундай аталади. Деворнинг ташки томони кўк ва олтин рангдаги арабий нақшли кошинлар билан зийнатланган, уларнинг замини олий кошинлардан иборат. Бу бино ҳайратга соладиган гўзал бўлиши керак<sup>2</sup>.

Марви замон билан Самарқанд Кешга тенг келарди. Дарвоқе, Самарқанд Темурнинг пойтахти бўлди, ўзининг кенглиги, аҳамияти ва гўзаллиги билан улуғ шаҳарлар даражасига қўтарилди. Испания элчиларининг ривоятича, Самарқанд Ишблія (Севилья)дан кенгроқ эди. Лекин бунда арқ билан қалъа, яъни шаҳарнинг ички қисмигина эътиборга олинган”.

Ҳерман Вамбери Темурнинг бунёдкорлик ишларини дунёning машҳур бўлган иморатлар билан таккослаган холда Темур курдирган иморатларга юксак таъриф берган. “Султон Худобонда тарафидан Султонияда юз йил илгари қурилган масжиднинг гўзаллиги Темур тарафидан бино этилган ҳозирги Самарқанднинг харобалари устида қад кўтарган «Масжиди шоҳ»нинг гўзал маҳобати билан тенглашолмас. Бобурнинг тавсифига кўра, унинг пештоқига Қуръон оятлари шунчалик йирик ҳарофлар билан битилганки, уни бир мил, ҳатто икки мил масофадап ўқиши мумкин эди. Меъморчиликнинг шундай услубида кейинроқ қурилган бинолар, масалан, Исфаҳондаги Майдоншоҳдаги Масжиди кабир, Қум ва Машҳаддаги турбалар Темур химмати билан бунёд этилган иморатга нисбатан тақорийдир”<sup>3</sup>.

Ҳерман Вамбери Амир Темурни мўғул хукмдори Чингизхон биллан бир сафга қўйган тарихчилар фикрини нотўғри эканлигини таъкидлайди. “...Энди шу кишини ваҳший, марҳаматсиз деб аташ мумкинми? Бинобарин, Темурни Чингиз ила бир сафга қўйиб, уни ваҳший, золим, қароқчи деб атаган кишиларнинг фикрлари икки мартаба хатодир. У аввало Осиё саркардаси эди”. Бу фикрлар албатта тўғри билдирилган эди<sup>4</sup>.

Ҳерман Вамбери ўз асарида Амир Темур шахсига, ҳарбий юришларига, бунёдкорлик фаолиятига, илм-фан соҳасида амалга оширган ишларига юксак баҳо беради. Ҳерман Вамбери асари орқали буюк саркарда, адолатли хукмдор хақида маълумотлар янада кенг ёйилди. Амир Темурнинг Ҳерман Вамбери ва бошқа европа олимлари томонидан ўрганилиши хақиқатдан ҳам бизнинг тупроғимизда жаҳон тарихида юксак эътироғга лойик бўлган шахслар етишиб чиққанлигини исботлайди. Бундай ўз юритига садоқатли, илм-маърифатга эга, бунёдкор шахслар Ўзбекистон тупроғидан жуда қўп етишиб чиққан ва яна етишиб чиқмоқда.

**НИЁЗОВ Ж.** – Тошкент Кимё ҳалқаро университети, ўқитувчisi.

**НУРМИРЗАЕВА М.** – Тошкент Кимё ҳалқаро университети, талаба.

<sup>1</sup> Ҳерман Вамбери «Бухоро ёхуд Мовауннаҳр тарихи ». –Т. : Фоғур Ғулом. 1990.-Б 37.

<sup>2</sup> Mavlonov, A. (2021, June). WATER CULT IN ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS (Based on materials from the Fergana Valley). In Конференции.

<sup>3</sup> Ҳерман Вамбери «Бухоро ёхуд Мовауннаҳр тарихи ». –Т. : Фоғур Ғулом. 1990.

<sup>4</sup> A. Mavlonov, & S. Mirzohidov (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. Science and innovation, 3 (C1), 5-7. doi: 10.5281/zenodo.10471818

П  
С  
И  
Х  
О  
Л  
О  
Г  
И  
Ч  
Е  
С  
К  
И  
Е

**НАУКИ**

**K. Irisbayeva, R. Shokirova**

**INTELLEKT TUSHUNCHASINI O'RGANISHDA NAZARIY VA  
METODOLOGIK YONDOSHUVLAR**

*Ushbu maqolada intellekt tushunchasini yoritilishini ta'minlovchi sharq va g'arb olimlarining bir qator ilmiy nazariyalari taxlili keltirilgan*

*Kalit so'zlar:* intellekt, voqe'lik, ruhiy quvvat, idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, iste'dod, ijtimoiy omillar, qobiliyat.

«Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz mакtabgacha ta'lим va mакtab ta'lим, oliv ta'lим tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarни bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, mакtab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiylar ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz». Albatta bu to'rt uzviy halqa O'zbekistonning yuksak marralarga olib chiquvchi kelajak egalari bo`lmish yoshlarimizda intellekt darajasini ko'tarishga astoydil bel bog'lashlariga to`g'ri keladi.

Intellekt o'zi nima? «Intellekt» (lotincha: intellekts-bilish, tushunish, idrok qilish) - insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati, turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqeahodisalarни oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va hakazo psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatalari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini ko'rib chiqsak, shuni ta'kidlash mumkinki, mакtabgacha yoshdag'i bolalardan boshlanib, aql-zakovatini shakllantirishda o'yin, diqqat, kuzatish, aqliy operatsiyalar va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish orqali shakllantirish, shuningdek,

uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida ham yangicha metodlar asosida shakllantirib borish lozimligini ko`rsatadi.

Intellketni o'lhash dastlabki qarashni ingliz olimi Frensis Galton tomonidan amalga oshirilgan. Galtonning fikricha xarakter irlsiyat yo'li bilan avloddan-avlodga o'tar ekan. Shu jumladan V.Shterni, J.Piaje, D.Vekslar va boshqa avtorlar ham intellektni insonlarni yangi hayotiy sharoitlariga moslashtiruvchi umumiyligini qobiliyat sifatida qarashgan. Gardner esa intellektni bir necha qobiliyatlar yig'indisi deb qaragan. Shuningdek, Xant "inson qobiliyatlarini shakllantirishga o'rgatish" nomli dasturni yaratadi. Dastur davomida Xant tarbiyachilarini bolalar bilan tovushli o'yinlar orqali ishlashga o'rgatdi. Tadqiqotda 11 ta bola saralab olingen edi. 1 yosh 11 oylik davriga kelib 50 tagacha so'zni talaffuz qila boshlashgani aniqlandi. Natijada saralab olingen bolalar aqliy intellekti boshqalarga qaraganda yaxshi rivojlangan bolalar bo'lib ulg'ayishgan.

Aql va aqliy faoliyat tushunchalari qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi. Aql tushunchasi Aflatun va Arastu falsafasida keng ishlatalgan. Arastu nazariya va amaliy aqlni nus va fronesis, sust va faol shakllarga ajratadi. Arastu talqiniga ko'ra, aql avvaliga ilk moddiy negizga o'xshab shakl siz bo'lgan va voqelikni idrok qilish jarayonida doimiy faol aql shakllanib, taraqqiy etib borgan hamda voqelikni anglashning samarali vositasiga aylangan. Nafaqat intellekt borasidagi nazariyalar yevropada balki, sharq olimlari qarashlarida ham aks etgan, jumladan, G'azzoliy "Aql o'zining ojiz va notavonligini tushunib yetish uchungina kerak xolos", degan xulosaga keladi. Abu Nasr Farobi 870-951 yillarda yashab o'tgan olim, faylasuf, dinshunos shaxs hisoblanadi. Farobi «aqlni bir tomondan ruhiy quvvat, ikkinchi tomondan ta'lim-tarbiyaning mahsuli» ekanligini ta'kidalydi. Mutafakkirning nazarida kishining ruhi va aqli o'lganidan keyin yo'q bo'lib ketmaydi, balki dunyoviy ruh va aql bilan qo'shiladi» deydi.

Abu Rayhon Beruniy emotsiyonallik va intellektuallik sintezining modelini yaratdi. U sematik ravishda aniq tushunchadan mavhum tushuncha sari o'tib borish jarayonini bayon qiladi. Bu haqida olim shunday yozadi» Ko'rinyotgan narsani tasavvur qilishga ko'niksang, fikrdagi narsaga asta-sekin o'tish oson kechadi» deydi.

Abu Ali ibn Sino o'z tajribasi asosida idrok haqida fikr bildiradi."«Instinkt» shunday quvvatdirki, bu hayvon ongida mantiqsiz vujudga keladi. Insonga esa ongli, mantiqan fikrlash xosdir» deydi. Ibn Sino fikricha, avval tog'-toshlar, so'ng o'simlik, hayvonot va taraqqiyotning yakuni sifatida boshqa jonzotlardan aqli, tafakkur qilish qobiliyati va tili bilan farq qiluvchi inson vujudga kelgan.

Abdulla Avloniy aqlga bergen ta'rifi juda go'zaldir: "Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidur Janobi Haq insonni hayvondan so'z va aql ila ayirmishdur.deydi.

Bilimlarni ma'nosiga tushunib yetmay, quruq yodlab olish bilangina bolani o'qimishli inson qilib tarbiyalab bo'lmasligi haqida Olloyor bildirgan fikr ham ahamiyatlidir. Quruq yodlash orqali aqlli, chiroyli so'zlash va xuddi bilimli insondek taassurot qoldirish mumkindir balki, lekin bunday yo'l bilan yangi ilm yaratib bo'lmaydi. Chunki unda o'rganilayotgan sohaga chuqur kirib borilmaydi, haqiqiy aql idrok, zehn yuqoladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, intellekt - insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati hisoblanib, bola yoki irlsiyatning yuqori ko`rsatkichi yoki ijtimoiy muhitning ijobiyligi sabab vunderkind bo'lib etishishi mumkin.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

- 1.Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1965, 2- tom, 26- bet.
- 2.Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiyligini psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
- 3.G'oziyev E.G. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent: Universitet ,1990
- 4.K.M.Irisbayeva. Bolalarning ruhiy kamolga yetishida oilaning psixologik ta'siri. O'zbekiston aholisining etnopsixologik va etnohududiy xususiyatlari: muommo va yechimlar Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi 18 may 2022 yil
- 5.K..Irisbayeva.Bolalarning maktabda o'qishga axloqiy-irodaviy tayyoragarligiga ta'sir etuvchi omillar. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE). VOLUME 3 ISSUE 5 MAY 2023 ISSN: 2795-8612. –P. 178-181
- 6.K.M.Irisboyeva boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslari. XXI veka N5-1 (86), aprel 2022g
- 7.Axborot manbalari:
- 8.WWW.tdpu.uz
- 9.WWW.pedagog.uz
- 10.WWW.Ziyonet.uz

**IRISBAYEVA K.** – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali, o'qituvchisi.

**SHOKIROVA R.** – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali talaba.

**Z. Latibjonova, M. Yoqubjonova**

## **VERBAL MULOQOT VOSITASI RIVOJLANMAGAN BOLALARING PSIXOLOGIK VA PEDOGOGIK XUSUSIYATLARI**

*Ushbu maqolada muloqotning bola rivojlanishidagi ahamiyati va uning hayotidagi roli yoritilgan, og'zaki muloqot vositalari rivojlanmagan bolaning psixologik-pedagogik xususiyatlari sanab o'tilgan. Bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida nutqiy faoliyatning verbal va noverbal muloqotning ahamiyati va tavsifnomasi. Nutqiy rivojlanishi buzilgan bolalar nutq zaxirasi kambag'al, ba'zilari umuman gapirmaydilar. Ushbu bolalarning aksariyati ularga qaratilgan nutqni tushunsalar ham ularning o'zları boshqalarga og'zaki murojaat qilolmaydilar. Bu jamiyatdagi bolalar uchun qiyin vaziyatga olib keladi: ular tengdoshlari bilan o'yin faoliyatida, ommaviy tadbirdorda qatnashish imkoniyatidan to'liq yoki qisman mahrum bo'ladilar.*

*Kalit so'zlar: nutq, til, muloqot, sistemali nutq buzilishi, muloqot vositalari, verbal, noverbal, nutqiy faoliyat.*

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ilm-fan va ta'lrim-tarbiya sohasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirishga qaratilgan, oilada farzand tug'ilganidan boshlab, kamolot yoshiga yetgunga qadar uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rinn topishiga xizmat qiladigan yaxlit va uzlucksiz tizim yaratilmoqda. Biz bu jarayonda inson kapitaliga e'tiborni yanada kuchaytirish, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etish borasida muhim dastur va loyihalarni amalga oshirmoqdamiz. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloq qilish va rivojlanishiga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.[1]

E.F.Sobotovichning fikriga ko'ra, ko'pincha nutq buzilishlari tizimli xarakterga ega bo'lib, nutqning fonetik-fonematisk, leksik-grammatik va sintaktik tomoni zarar ko'radi. Nutq faoliyatining tizimli buzilishi turli xil nutq patologiyalarida kuzatiladi: alaliya, dizarriya, anarriya, nutqning umumiyligi rivojlanmaganligi, nutqiy rivojlanishning kechikishi va boshqalar. [4].

Nutqning rivojlanmaganligining dastlabki belgilardan biri boshlang'ich nutqning kech rivojlanishi deb hisoblanadi, birinchi so'zlar 2-2,5 yoshdan keyin paydo bo'lsa, nutq agrammatik ko'rinishda, fonetik tomonдан yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Ko'pincha nutq faolligining kamligi kuzatiladi.

S.S.Lyapidevskiy va B.M.Grinshteynning fikricha ortda qolgan nutq rivojlanishining birinchi darajasiga ega bo'lgan bolalarning logopedik xususiyatlari quyidagilarni misol qilganlar: "Nutqiy rivojlanish keskin kechikadi. Gapishtirish nutq davri ko'pincha yo'q. Bola uch-to'rt yoshida alohida bo'g'in yoki oddiy so'zlarini talaffuz qila boshlaydi. So'zli nutq o'z-o'zidan rivojlanmaydi". G.V.Matsievskaya so'zlariga ko'ra "...tovush chiqarishning kech rivojlanishi, so'z boyligining chegaralanganligi, talaffuzdagi va tuzatish qiyin bo'lgan agrammatizm xarakterlidir".

N.S.Jukova nutqni tushunishning bir necha darajalarini aniqladi:

- Nol: bola boshqalarning nutqiga deyarli munosabat bildirmaydi, ba'zida uning ismiga javob beradi va tanbeh va tasdiqlash intonatsiyasini qabul qiladi. Sensor alaliyaning og'ir darajasi bo'lgan bolalar nutqni tushunishning ushbu darajasida bo'lishi mumkin.

- Vaziyatli: kundalik predmetli hayoti bilan bog'liq bo'lgan nutqni tushunadi. U yaqinlarining ismlarini, o'yinchoqlarning nomlarini biladi, o'zida va boshqalarni tana qismlarini ko'rsatadi, lekin og'zaki ko'rsatmalarga ko'ra kundalik hayotda unga yaxshi tanish bo'lgan narsalarning, o'yinchoqlarning tasvirlarini ajratmaydi (ko'rish qobiliyati saqlangan holda). [3]

- Nominativ: ob'ektlarning nomlarini biladi, ularning rasmlarini topadi, lekin harakatlar nomlarini to'g'ri topolmaydilar, bilvosita holatlarni tushunmaydi.

- Predikativ: harakatlarning ko'plab nomlarini biladi, bilvosita holatlarning savollarini tushunadi, oddiy predloglarning ma'nosini tushunadi va farqlaydi, lekin so'zlarining grammatik shakllarini ajratmaydi.

- Ajratilgan: so'zlarining o'zgaruvchan qismlari – ko'plik, oldqo'shimchalar, qo'shimchalar orqali ma'nolarni farqlaydi.

T.B.Filichevaning kuzatishlariga ko'ra, umumiyligi nutqi bo'lмаган bolalarda tovushlar talaffuzida beqarorlik kuzatiladi, bo'g'inli tuzilish jiddiy buziladi, asosan bir-ikki bo'g'inli so'zlar ustunlik qiladi. Keyinchalik murakkab

birikma tuzilishdagi so'zlarni takrorlashga harakat qilganda, brikmalar soni kamayadi, fonemik jarayonlarning qo'pol buzilishi mavjud, so'zlarni ovozli tahlil qilish vazifalari mavjud emas.

Verbal muloqot vositalarining yetishmasligi bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarini cheklaydi va bu, albatta, o'z navbatida, atrof-olam haqidagi tasvvurlarini cheklaydi. Faol mustaqil nutqni rivojlantirish uchun asos ichki nutq zaxirasini rivojlantirish, ya'ni nutqni tushunish.

Nutqni rivojlantirish jarayoniga lug'atni to'ldirish, grammatik shakllar va toifalarini tushunish kiradi. Bu jarayon bunday bolalarda kam rivojlangan eshitish diqqatiga bog'liq, shuning uchun ular uchun yangi so'zlarni va ularning elementlarini qulqoq bilan ajratish qiyin [3]. Tovushlarni, bo'g'inxalarni, so'zlarni farqlash, ajratish va talafuz qilish qobiliyatları til lug'atini boyitishga olib keladi. R.E.Levina ushbu qoidaga asoslangan holda, nutqni rivojlantirish mumkin deb hisoblaydi. Kerakli miqdordagi so'zlashuv nutqi natijasida so'zsiz bolalarda nevrotik xarakter xususiyatlari paydo bo'ladi; sustlik, xafagarchilik, asabiylashish, o'ziga ishonmaslik, impulsivlik, giperaktivlik ortadi.

Umumiy nutq yetishmasligi bo'lgan bolalarda xotira, e'tibor, fikrlash, idrok yetish rivojlanmagan — xotira miqdori kamayadi, og'zaki konstruktsiyalar cheklangan. Bunday bolalarda mustaqil nutq yo'q, chunki ular uchun so'zlarni topish va keyin ularni bog'lash qiyin [2]. Umumiy nutqi rivojlanmagan bolalar so'zning aniq ovozli tasviri yo'qligi sababli fonemik tahlilni o'zlashtira olmaydi. Nutqi rivojlanmagan bolalar nutq darajasi va aqliy rivojlanish o'rtaida nomuvofiqlikka ega. Yuqoridaqilarga asoslanib, biz og'zaki aloqa vositalarining yetishmasligi bo'lgan bolalarda lingvistik va lingvistik bo'lmagan kasallikkarni tashxislash va tuzatishga differensial yondashuv yordamida turli nozologik guruhlarga mansub bo'lmagan bolalarda nutqni faollashtirish mumkin degan xulosaga keldik.

#### *Foydalilanigan adabiyotlar*

- 1.N.Z.Abidova, Z.N.Latibjonova. "Tilni egallashning dastlabki bosqichida nutqiy faoliyatning verbal va noverbal muloqotning tavsifnomasi"\ Maktab va hayot-ilmiy metodik jurnal7(171)\2022
- 2.Вяткина, С. В. Психолого-педагогическая характеристика детей с отсутствием вербальных средств общения / С. В. Вяткина. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 50 (236). — С. 321-322. — URL: <https://moluch.ru/archive/236/54899/> (дата обращения: 26.02.2023).
- 3.Жукова Н. С. Отклонения в развитии детской речи: учебное пособие. — м.: аст-пресс, 2012. — 128 с.
- 4.Соботович Е. Ф. Речевое недоразвитие у детей и пути его коррекции: (дети с нарушением интеллекта и моторной азалией). — м.: классик-с стиль, 2013. — 160 с.

*LATIBJONOVA Z.* – Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Namangan filiali, o'qituvchisi.

*YOQUBJONOVA M.* – Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Namangan filiali, 3-bosqich talabasi.

**Z. Latibjonova, N. Baxromova**

## RINOLALIK BOLALAR BILAN OPERATSIYADAN KEYINGI OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISH

*The article describes the types of rhinolalia and post-operative corrective work with children with rhinolalia.*

**Key words:** operation, articulation, speech breath, diaphragmatic breath, oralpraxis, tongue, lips, facial muscles, fricative sound, uranoplasty, speech therapist, speech therapy training, feature, logotherapy, psychotherapy.

Rinolaliya (grekcha so'zdan olingen bo'lib, rhinos – burun, lalia – nutq) nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoztembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir. Rinolaliya hosil bo'lishga ko'ra dislaliyadan farq qiladi, ya'ni rinolaliyada tovushlarni burun-dimog' bilan talaffuz qilish hollari kuzatiladi. Rinolaliyada tovushlar artikulyasiyasi, fonatsiya, tovush hosil bo'lish mexanizmlari jiddiy ravishda normadidan chetga chiqadi. Normal fonatsiya bo'lganda kishida burun tovushlaridan tashqari nutqdagi hamma tovushlarni talaffuz qilish vaqtida burun-xalqum va burun bo'shlig'ining bo'g'iz va og'iz bo'shlig'idan ajralish ro'y beradi. Rilolaliya uch shaklga ajratiladi. Yopiq rinolaliya. Yopiq rinolaliya nutq tovushlarini talaffuz qilish vaqtida fiziologik burun rezonansining pasayishi natijasida yuzaga keladi. Orqa yopiq rinolaliya – bolalarda adenoidlarning ko'payib ketishi, burun-halqumda poliplarning, fibroma va o'smalarining paydo bo'lishida kuzatiladi. Funksional yopiq rinolaliya bolalarda ko'p uchrab turadi, lekin doimo aniqlash qiyin. Chunki u burun bo'shlig'ining yaxshi o'tkazuvchanligida va burundan nafas olish buzilmagan hollarda kuzatiladi. Bunda burun tembri va unli tovushlar talaffuzi qo'pol buzilgan bo'ladi. Organik yopiq rinolaliyaning sababi – burun bo'shlig'ida 360 o'tkazuvchanlikning buzilishdir. Bunda burundan to'g'ri nafas olish yo'lda qo'yilsa, ya'ni burun bo'shlig'idagi o'tkazuvchanlik yaxshilansa hamma kamchilik yo'qoladi. Yopiq rinolaliyada olib boriladigan logopedik ishning samaradorligi burun-halqum holatiga, uning funksiyasiga va bolaning yoshiga bog'liq. Logopedik mashg'ulotning boshlang'ich davrida nafas mashqlarini olib borish tavsija etiladi. Bundan maqsad og'iz va burundan nafas olish nafas chiqarishni differensiatsiya qilishdir. Bu mashqlar avval puflashdan boshlanib, keyin burundan qisqa va chuqur nafas chiqarish bilan almashtiriladi. Ochiq rinolaliya. Rinolaliyaning ochiq formasiga og'iz bo'shlig'ida hosil bo'luchchi tovushlar dimog'da talaffuz etiladi. Ochiq rinolaliyaning aniqlash uchun funksional tekshirish usullari mavjud. Eng oddiy tekshirishlardan biri Gutsman usulidir. Bunda logoped bolaga galma-gal a va i unli tovushlarni qaytarishni buyuradi va bolaning burun yo'lini bir bekitib, bir olib turadi. Ochiq rinolaliya organik va funksional bo'lishi mumkin. Organik ochiq rinolaliya tug'ma va hayot davomida orttirilgan bo'ladi. Ochiq rinolaliyaning tug'ma shaklining sababi yumshoq va qattiq tanglaydagi yoriqliklardir. Funksional ochiq rinolaliyaning paydo bo'lish sabablari turli xil bo'ladi. Masalan, bolalarda ovozning hosil bo'lishida yumshoq tanglay harakatining sust bo'lishi. Funksional ochiq rinolaliya asab kasalliklarida ham namoyon bo'lish hollari kuzatiladi. Funksional ochiq rinolaliya organik rinolaliyaga nisbatan yengil kechadi. Rinolaliyada kuzatiladigan tug'ma lab va tanglaydagi kamchiliklar logopediya va tibbiyot fani oldiga jiddiy muammolarni qo'yadi. Yuqori labdagisi tug'ma yoriqliklari: yashirin yoriqlik, to'liq bo'lmagan yoriqlik: a) burun bo'limida teri-tog'ayning o'zgarmaganligi; b) burun bo'limida teri-tog'ayning o'zgarganligi. To'liq yoriqlik. Bunda bolaning ilk yashash davrida xirurgik davolash ishlari olib boriladi, bu davolash ishlari bola nutqining normal rivojlanishiga imkon yaratadi. Tug'ma tanglay yoriqliklari: 1) yumshoq tanglay yoriqliklari: bu yoriqliklar yashirin, to'liqsiz va to'liq bo'ladi; 2) yumshoq va qattiq tanglay yoriqliklari: yashirin, to'liqsiz, to'liq; 3) alveolyar o'simtaning, qattiq va yumshoq tanglayning to'liq yoriqliklari: bir tomonlama, ikki tomonlama; 4) alyevolyar o'simtaning va qattiq tanglay oldindi qismining to'liq yoriqligi: bir tomonlama, ikki tomonlama. Ikki tomonlama yoriqliklar bir tomonlama yoriqliklarga nisbatan kam uchraydi. Amaliyotda ko'proq lab va tanglaydagi yoriqliklar kuzatiladi. Tanglay yoriqliklari shakkari favqulodda xilma-xil bo'lib, ularning hammasi nutq buzilishigi olib keladi. Lab yoriqliklari labning qisman va to'liq yoriqliklariga ajratiladi. Qisman lab yoriqligi faqat lab chetida bo'ladi, ya'ni nuqson pastki burun tirkishiga yetib bormaydi. Agar yoriqlik burun tirkishining pastki sohasini, ba'zan burun yo'lini oldindi uchini qamrab olib bo'lsa, yoriqlik to'liq hisoblanadi. Tanglay yoriqligining mavjudligi bolaning fiziologik nafas olishini yomonlashtiradi. Tug'ma yoriqligi bor bolalar o'z nuqsoniga instinktiv ravishda moslanishga majbur bo'ladir. Bu moslanish tilning og'iz bo'shlig'ida o'ziga xos joylashuviga namoyon bo'ladi. Rinolaliyadagi tanglay nuqsonlari butun artikulyasion apparat muskullarni noto'g'ri muskuliy bog'liqligini keltirib chiqaradi. Rinolaliyada nutq apparati muskullari

anatomik jihatdan saqlangan bo'lsa ham, harakatlar o'zlarining sustligi, tormozlanganligi bilan ajralib turadi. Ko'pincha, rinolaliya eshitishning zaiflashuvi kuzatiladi. Bu narsa 362 ovqatni yevstaxiyev trubalariga tushib, u yerda eshitish traktida shamollash jarayonlarini keltirib chiqarishi bilan bog'liqidir. Aralash rinolaliya. Rinolaliyaning bu turi burun rezonansining patologik kamayganligi holida havoning burundan chiqib ketishi bilan izohlanadi, oqibatda barcha nutq tovushlarining artikulyasyon va akustik tomonidan buzilishi kuzatiladi. Ovoz temibri ahamiyati darajada o'zgaradi. Aralash rinolaliyada ham ochiq, ham yopiq rinolaliyaning belgilari birga qo'shilgan holda namoyon bo'ladi. Bunda burun yo'li to'silib qolgani holda tanglay-halqum pardasida ham o'zgarishlar bo'ladi. Burun tovushlari yopiq rinolaliyadagi singari, boshqa tovushlar esa ochiq rinolaliyadagi kabi talafuz qilinadi. Aralash rinolaliya ham organik, ham funksional xarakterda bo'lishi mumkin. Organik xarakterdagi aralash rinolaliyaga yumshoq tanglayning kaltaligi yoki falajligi sabab bo'lsa, funksional aralash rinolaliyaga tanglay-halqum yorig'ining funksiyasi o'zgarishi natijasida burun yo'lining to'silib turishi sabab bo'ladi. Davolashdan oldin qaysi bir kamchilik ovoz tembrini ko'proq buzib, manqalikka ko'proq sabab bo'layotganini aniqlash zarur. Masalan, bemor burun tovushlari bilan unli tovushlarni boshqa tovushlarga qaraganda yanada ko'proq manqalanib talaffuz qilayotgan bo'lsa, demak, unda yopiq rinolaliya ustun bo'ladi va davolash chorasini Shunga qarab belgilanadi. Rinolalik bolalar bilan operatsiyadan keyingi olib boriladigan logopedik ish. Uranoplastikadan keyin logopedik mashg'ulotlarga jalb qilinadigan rinolaliklar o'z tarkibi bo'yicha bir xil emas. Bu logoped bilan mashg'ulotlardagi operatsiyagacha bo'lgan tayyorgarlikning sifatiga va operatsiya natijalariga bog'liqidir. Operatsiyalar natijasi har xil bo'lishi mumkin. Uranoplastika yaxshi natija bergen holatlarda yumshoq tanglay to'liq shakllanadi, ya'ni u yetarli darajada uzun va harakatchan bo'ladi, ko'tarilganda halqumning orqa devori bilan o'zaro tutashadi. Aksariyat hollarda esa 363 yumshoq tanglay uranoplastikadan keyin ham qisqaligicha qoladi, halqumning orqa devori bilan uning tutashi yuz bermaydi. Buning oqibatida tanglay-halqum tortmasi yuzaga kelmaydi. Ayrim hollarda esa operatsiyadan keyin tanglayda chandiq (tanglayning yetarli o'smagan joylari) qoladi, takroriy operatsiya qilish zarurati yuzaga keladi. Mashg'ulotlarga quyidagi bemorlar qatnashishlari mumkin: a) operatsiyagacha bo'lgan davrdagi logopedik tayyorgarlikdan o'tmaganlar; b) qisman tayyorgarlikdan o'tgan va o'z nutqini yaxshilagan; v) tavsiya qilingan metodika bo'yicha operatsiyagacha bo'lgan logopedik tayyorgarlikning to'liq kursini o'tagan bolalar; Operatsiyagacha bo'lgan davrda boshqa metodika bo'yicha logopedik yordam olganlar. Uranoplastikadan keyin logopedik mashg'ulotlarda ishtirok etish vaqt ham har xildir. 1. Har bir aniq holatda ushbu barcha omillarni hisobga olish uranoplastikadan keyin bo'ladigan logopedik ishlarning aniq yo'llarini izlash imkonini beradi. Logopedik ishlarning imkoniyatlari takroriy operatsiyasiz qisman mavjud bo'lgan nuqsonlarni bartaraf qilishga va bola nutqini to'g'rilashga yordam beradi. Xirurgik tadbirlar esa bola to'g'ri nutqqa ega bo'lishiga zamin yaratadi. Logoped bolaning anatomik jihatdan yangi bo'lgan sharoitlarda nutqdan foydalanishni o'rganishga yordam berishi kerak. Barcha bemorlar uchun (operatsiyagacha bo'lgan tayyorgarlikni o'tgan va o'tmagan) uranoplastikadan keyingi logopedik mashg'ulotlar o'tkazilishi zarur. Bu shu bilan izohlanadi, tanglayning pay to'qimalari anatomiyasi operatsiyadan keyin o'zgaradi. U esa operatsiyagacha bo'lgan davrda to'liq normallashgan holda ham nutqning sifatiga ta'sir qilishi mumkin. Agar operatsiyagacha bo'lgan davrdagi mashg'ulotlar tegishli metodika asosida o'tkazilgan bo'lsa, bola operatsiyadan keyin to'g'ri gapirishning to'liq 364 imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayrim holatlarda esa bola yangicha sharoitda normal darajadagi nutqni egallashi uchun 5 – 6 mashg'ulot ham kifoya qiladi. Buning uchun esa diagfragmal nafas olish va og'izdan nafas chiqarish ustidan doimiy nazorat o'rnatilgan holda barcha unli va undosh tovushlarning artikulyasi takrorlandi, maishiy-kundalik nutqda to'g'ri talaffuz qilish malakalarini mustahkamlandi. Dastlab nutq tempi sekinalashadi, muntazam ravishda u normallashib boradi va bemorning diqqat-e'tibori nutqning ifodali bo'lishiga yo'naltiriladi. Bola nutqini doimiy ravishda nazorat qilish dastlab logoped tomonidan amalga oshiriladi, keyinchalik esa bu ishni ota-onalar, shuningdek, bolalar bilan muktabda va uyda birga bo'lgan shaxslar bajarishadi. Uranoplastikadan keyin bo'ladigan logopedik mashg'ulotlarda eshitish nazoratini rivojlantirish va fonematik tarzda qabul qilishga, idrok qilishga katta e'tibor qaratiladi. Operatsiyadan keyin bo'ladigan ishlarda nutqda mimik paylarning ishtirok etishiga, nutq jarayonida ortiqcha zo'riqishning oldini olishga va sinkneziyalar paydo bo'lishining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, operatsiyagacha bo'lgan davrda tegishli metodika asosida logoped bilan shug'ullangan shaxslar operatsiyadan keyin o'zlarining nutqiy malakalarini nisbatan kengroq nutq materialida takomillashtiradi. Ular muntazam ravishda barcha vaziyatlarda to'g'ri talaffuzga o'tib borishadi. Operatsiyagacha bo'lgan davrda boshqa metodikalar asosida shug'ullangan yoki umuman logopedik yordam olmagan rinolaliklar logoped tomonidan sinchiklab tekshirilishi lozim. Ta'sir qilish usulini tanlash jarayonida ularning imkoniyatlari va nutqi defektining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. 365 Operatsiyadan keyingi logopedik mashg'ulotlarga qatnasha boshlagan rinolalikning nutqida burun ottenkasi, yuz va mimik paylarda taranglik, zo'riqish bo'limasa, ammo bir qator tovushlar mavjud bo'limasa, u bilan dislalik bilan shug'ullangan singari ishslash mumkin. Bu o'rinda yetishmayotgan tovushlarni yuzaga keltirish usullari nazarda tutiladi. Uranoplastikdan keyin nutqda oz mikdorda bo'lsa-da, burun ottenkasi bor bo'lgan shaxslar bilan bo'ladigan mashg'ulotlarda oldingi va

biz bayon qilgan metodika asosida ishlarni amalga oshirib borish lozim. Bu tizim nisbatan qisqa vaqt ichida nazalilikni bartaraf qilishga yordam beradi va mimik hamda yuz paylari artikulyatsiyasidagi noto‘g‘ri ishtirokini butunlay bartaraf etadi. Dastlabki logopedik yordamni olayotgan bolalar bilan bo‘ladigan mashg‘ulotlarda bolalarda nutqqa nisbatan eshitish e‘tiborini rivojlantirish, talaffuz qilinayotgan tovushlardan hosil qilinayotgan kinestetik va taktil his-tuyg‘ularni mustahkamlash zarur. Bu o‘rinda nutqning eski steroyetipi muntazam ravishdayangisi bilan almashinib boradi. Mashg‘ulotlarda o‘zlashtiradigan to‘g‘ri nutq malakalarini avtomatlashtirish har bir rino-lalik o‘quvchida har xilda kechadi. Bola nutqi muloqot davomida yo‘l qo‘yadigan xatolar shu bilan izohlanishi mumkinki, u logopedik mashg‘ulotlarda o‘zlashtirgan ko‘nikmalaridan barvaqt foydalana boshlaydi. Bu o‘rinda o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarning mustahkamligi va ularning avtomatizatsiyalashuvi buziladi. Logoped ayrim hollarda rinolalik bolalar nutqi ustidan bo‘ladigan nazoratni ota-onalarga vaqtli ishonib topshiradi. Bolalar nutqidagi buzilishni qayd qilgan holda ota-onalar uni to‘g‘rilash yo‘lini, usullarini bilishmaydi. Buning natijasida esa nizoli vaziyat yuzaga keladi. Ayrim holatlarda esa bolaning o‘zi nutqini noto‘g‘ri nazorat qiladi, ya’ni o‘zining ustidan nazorat qilishi zaruratini his qilmaydi. Ayrim holatlarda esa kuchli chalg‘iydi va o‘zini faqat vaqt vaqt bilan nazorat 366 qilib turadi. Logoped va bola o‘rtasidagi munosabat uzoq muddat davom etadi, hatto logopedik mashg‘ulotlar tugagandan keyin ham. Bu munosabat bir qator sabablar bilan izohlanadi. Rinolaliklarni aksariyat hollarda burni va yuqori labida qolgan nuhsonlarini bartaraf etish uchun operatsiya qilishadi. Odatda, bunday operatsiyalar 18 – 20 yoshlarda amalga oshiriladi. Ayrim holatlarda et o‘tkazib qo‘yish (transplantatsiya) bajariladi. Burunni va burun devorlarini operatsiya qilish ham operatsiyadan keyin ma’lum muddat davomida nutqni nazorat qilib borishni talab qiladi. Logopedik va psixoterapevtik ta’sir, jinsiy yetilish, bolalar ovozida o‘zgarish yuz bergan davrda ham talab qilinadi. 1. Halqumda fiziologik o‘zgarishlar va nafas olishda o‘zgarishlar yuz berishi munosabati bilan jinsiy yetilish davrida o‘smirlar nutqida yana burun ottenkasi yuzaga kelishi mumkin. Ushbu ottenka bolaning o‘zi normal nutq konuniyatlarini eslagan taqdirdagina tez bartaraf bo‘ladi. Ammo aksariyat bunday hollarda logoped yordami talab qilinadi. Logoped uning qiyinchiliklarini aniqlaydi va nutq tempini, artikulyatsiyasini muvofiqlashtiradi, nafas olishni bir maromga keltiradi. Logopedik ishlarning usullari bolaning psixik statusini hisobga olgan holda, mijoz nutqining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlariga bog‘liq ravishda modifikatsiya qilinadi.

#### *Foydalilanilgan adabiyotlar*

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. Darslik. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007.
2. Logopediya L.S.Volkova, S.I.Shaxovskaya. Izd-vo «Vlados» – M., 2002.
3. Krauze Ye.N. Logopediya. Izd-vo «Korone print» – M., 2003. 367
4. Mo‘minova L., Ayupova M. Logopediya. – T., 1993. 236
5. Xrestomatiya po logopedii T.2. (pod.red. Volkova S.L., Seliverstov V.I.) Izd-vo «Vlados» – M., 1997.
6. Shomaxmudova R.Sh. Mo‘minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ulami bartaraf etish. – T., 1994

*LATIBJONOVA Z.* – Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Namangan filiali, o‘qituvchisi.

*BAXROMOVA N.* – Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Namangan filiali, 2-bosqich talabasi.

П  
Е  
Д  
А  
Г  
О  
Г  
И  
Ч  
Е  
С  
К  
И  
Е

## **НАУКИ**

***M. Axmadaliyev, L. Madaminova***

### **RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI PSIXO-PEDA-GOGIK TASHXIS QILISHNING NAZARIY METODOLOGIK TAMOYILLARI**

*Ushbu maqolada inkluziv ta'lif jarayoni rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilishning nazariy metodologik tamoyillari haqida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: Imkoniyati cheklangan bolalar, yordamga muhtoj shaxslar, maxsus ta'lif dasturlari, maxsus maktablar.*

O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar imkoniyatlari cheklangan, alohida yordamga muhtoj shaxslarning ijtimoiylashuvi jarayonini sifatli takomillashtirishga qaratilgan innovatsion ta'lif dasturlari va texnologiyalari tatbiq etishning metodologik va nazariy asoslarini ishlab chiqishning dolzarbligini ko'rsatadi.

reabilitasiya markazi, rivojlanish markazlari, nuqsoni bor bolalar uchun alohida guruhlar, skrining tashxis, differensial tashxis, fenomenologik tashxis, rivojlanishdagi nuqson, sensor organ.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha va maktab ta'lif muassasalarini faoliyat ko'rsatadi. Ushbu maktablarda bolalarni psixik va jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi ta'lif sharoitlari yaratilgan. Bunday sharoitlar avvalo bolaning xususiyatlari e'tiborga olgan holda yakka yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv maxsus dastur, metod, kerakli maxsus texnik vositalarni, maxsus tayyorgarlikka ega pedagog, psixolog, defektolog va boshqalar bilan birgalikda kerakli tibbiy-profilaktik hamda korreksion ishlarni, maxsus ijtimoiy yordamni, maxsus ta'lif muassasalarini texnik va ilmiy metodik jihatdan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Xozirgi kunda turli xil maxsus ta'im muassasalarini mayjud. Bolalar puxta saralash natijasida qabul qilinishi mo'ljalangan va O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lif vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus ta'lif dasturlarini amalga oshiradigan maxsus ta'lif muassasalar bilan bir qatorda turli reabilitasiya markazlari, rivojlantirish

markazlari aralash guruxlar va boshqalar ochildi. Shuningdek, umumta'lim maktabgacha ta'lim muassasarida, umumta'lim maktablarda aqliy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni uchratish mumkin.

Pedagogik-psixologik diagnostika fani maxsus fan bo'lib bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarni erta aniqlash, boshqa unga o'xshash xolatlardan farqlashga, tashxisini, ta'limdagi imkoniyatlarni aniqlashga, zarur bo'lsa tegishli maxsus muassalarga yuborishga va u yerda o'zlariga mos korreksiyalashga yo'naltirilgan o'quv tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishga imkon beradi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni iloji boricha erta aniqlash, o'z vaqtida psixologik-pedagogik, korreksiyalash yordamini ko'rsatish, nogironlikning oldini olish, bolalarni va o'smirlarning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxis qilish uch bosqichni o'z ichiga oladi.

### 1.Skrining nomini olgan.

Bu bosqichda bola rivojlanishidagi orqada qolish, psixik-jismoniy kamchiliklari aniqlanadi lekin ularning xarakteri belgilash murakkab bo'ladi. Skrining tashxisining asosiy maqsadi psixologik rivojlanish davridagi turli nuqson va kamchiliklarga ega bolalarni erta aniqlash, bola rivojlanishidagi psixo-pedagogik muammosini aniqlab, unga umumta'lim muassasalarida sharoitlar yaratishdir.

### 2.Differensial tashxis.

Bu bosqichning maqsadi rivojlanish nuqsonini turini, xil toifasini, aniqlash. Uning natijalariga ko'ra bolaning imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning ta'lim olishlari uchun ta'lim muassasasini turi va dasturi, optimal pedagogik komissiyaning faoliyati differensial diagnostikada yetarlicha rolni egallaydi. Ma'lumki rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning har bir turida psixologik xususiyatlarining o'xshash jixatlari ham kuzatiladi. Masalan: rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarning deyarli barchasida nutq kamchiliklar yoki ta'lim olishida sustliklar bilan harakterlanadi.

### 3.Fenomenologik.

Uning maqsadi - bolaning individual xususiyatlari ya'ni tafakkur faoliyatining xarakteristikasi, xissiy iroda doirasi, ishchanlik qobiliyati, shaxsni o'rganilib u bilan ishslash bo'yicha korreksion-rivojlantiruvchi individual shart-sharoitni tashkillashtirishdir. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan psixo-pedagogik diagnostikani samarali amalga oshirish uchun "Rivojlanishidagi nuqson" tushunchasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarni tashxis qilishda rus olimlari (Л.С.Виготский, В.И.Лубовский, С.Д.Забрамная) tomonidan ko'rsatilgan bir qancha tamoyillarga amal qilish muhim.

Psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv tarbiyaviy jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish, korreksiyalashga yo'naltirilgan pedagogik vositalardan to'g'ri foydalanish psixik va jismoniy nuqsonlari bo'lgan (aqli zaif, kar, zaif eshituvchi, nutqida nuqsoni bo'lgan, ko'zi ojiz, zaif ko'ruchchi) bolalarni o'xshash holatlardan farqlash; bolalarni tegishli maxsus muassasalarga to'g'ri yo'naltirish; bolalarning nuqsonlari tuzilishini bilish va xissiy-irodaviy doiralari individual psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda pedagogik ta'sirining samarali metodlarini va usullari bilish malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar, rivojlanishida psixik-jismoniy kamchilikka ega, rivojlanishdan orqada qolish, rivojlanishida muammoga ega alohida yordamga muhtoj – sensor organlarining, markaziy nerv sistemasi yoki harakat tayanch a'zolarining orttirilgan yoki tug'ma organik jarohatlanishi natijasida psixik funksiyalarining rivojlanishida kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar kiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nutqida va aqlida nuqsoni bor bolalarga alohida gruppa va alohida maktablarning ochilishi muhim. Ba'zi bir holatda nutqida va aqliy rivojlanishida muammosi bor bolalarning o'zlarini bilan ishslash foyda bermaydi. Bolalarni erta tashxis qilib o'rganish muhimligi shuki u orqali bolani korreksion ta'llimga vaqtida yo'naltirib ikkilamchi nuqsonni paydo bo'lishimi oldimi oladi. Bola imkoniyatlariga baho berish hamda psixik rivojlanishni aniqlash orqali korreksion pedagogik ishning vazifasini xal qiladi.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar:*

1.Nishanova Z. Pedagogik-psixologik diagnostika, 3-22. B.

2.Axmadiyev, M. (2021). Raqamlı texnologiyalar va xalqaro baholash dasturlari integratsiyasini ta'lim tizimidagi ahamiyati.

3.Axmadiyev M. (2022). The role of international assessment programs and digital technologies in improving the quality of education. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6605983>

**AXMADALIYEV M.** – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, o'qituvchisi.

**MADAMINOVA L.** – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, talaba.

**M. Jurayeva, R. Po`latova**

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TARBIYALANUVCHI-LARINI MAKTABGACHA TA'LIMGA MOSLASHTIRISHDA KREATIV YONDASHUV

*Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining maktabgacha ta'lim muassasasiga moslashuvida tarbiyachining kreativ usullaridan foydalanishi, zamonaviy axborot texnologiyalarining roli va ahamiyati haqida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, ijtimoiy-psixologik moslashuv, zamaonaviy axborot texnologiyalari, innovatsiya, ko'nikma, malaka, kognitiv bilish, mu-loqot, o'yin, interfaol metodlar.

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kreativ, innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator omillarga tayanadi. Unda tarbiyachining muloqotchanligi, qarshi fikrlarga nisbatan xolisona munosabatga tayyorligi inobatga olinadi. Natijada tarbiyachi o'z faoliyati ilmiy ta'minlaydigan keng qaramli mavzu (motiv) ga ega bo'ladi. Tarbiyachi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tarbiyachi shaxsining kreativligini shakillantirish imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tizimiga yangi bosqichga olib chiqish xususan, bog'cha xodimlarining professional tayorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish maqsad qilindi.

2022-2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadirlarning malakasini oshirish hamda maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar kreativlik asosida takomillashtirish rejalashtirildi.

Prezidentimiz Shavkat mirziyayevning 08.05.2019 yildagi PQ 4312 sonli qarori O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori Maktabgacha ta'limni 2030-yilga qadar rivojlantirish yo'llarini konsepsiyasini ishlab chiqib maktabgacha ta'lim tizimi taraqqiyiti, bo'lajak barkamol yosh avlodlarimizni tarbiyalashni va ta'lim berishni maktabgacha ta'lim sohasidan mustahkam va yirik davlatlar maktabgacha ta'limiga yetishaolishini belgilovchi hujjat boldi.

**Kreativlik** (lot, ing. "create"- yaratish, "creative"- yaratuvchi, ijodkor)- individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavfsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavslifaydi. Shuningdek kreativ iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa kreativlik zehni o'tkirligini belgilab beradi.

Ayniqsa maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyachi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogic izlanishlar olib borish ta'lab etadi. Shu bilan bir qatorda kreativlik masalasini ilmiy tushunishda turli fikrlarning mavjudligi, yaxlit xulosaga kelinmaganligi bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi dolzarbligining yana bir ko'rinishi hissoblanadi. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksz ta'lim tizimi kretiv yondashuvni talab etadi. Ayniqsa maktabgacha ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog tarbiyachilarga katta ma'suliyat yuklatiladi. Ya'ni maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kreativlik faoliyati hali mahsus o'rganishni talab etmoqda.

E.P Torrens fikricha, "kreativlik"<sup>1</sup> tushunchasi negizida quydagilar yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakillantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama qarshiligidagi nisbatan ta'sirchanlik.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin.<sup>1</sup> Tarbiyachining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuviga aks etadi.

So'ngi yillarda ushbu holat "pedagogic kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda. "Kreativ pedagogika" quydagi ikki holatni kafolatlayolishi zarur:

1) O'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hissoblaydigan bolalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalgib etish;

2) O'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish-qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.<sup>2</sup>

Zamonaviy metodikalardan, yangi tizimlardan bohabar bo'lism, o'rganish, amalda qo'llab ko'rish ham hozirgi vaqt bolalarini tarbiyalashda ularga yangi bilim va ko'nikmalarni berishlarida samarali mahsulini beradi. Jumladan yangi tizim **STEAM** tizimi;

STEAM ta'limgiz tizimi nima? Ushbu tizimga qisqacha ta'rif berib o'tadi gan bo'lsak. Agar STEAM qisqartmani yoysak, quydagilarni olamiz:

S – science –tabiy fanlar;

T – technology –texnologiya;

E – engineering –muhandislik;

A – art –san'at;

M – math –matematika.

STEAM ta'limgiz tizimini tarbiyachi kreativligiga nima a'lloqasi bor deyishingiz mumkin. Vaholanki bu tizim 4 ta sohani ozida mujassam etgan yaxlit bir zamonaviy dastur hissoblanadi. Steam ta'limgiz tizimini mukammal o'zlashtirgan tarbiyachida kreativlik rivojlanadi, mashg'ulotlar jarayonida bolalar bilan "Ilk qadam"<sup>3</sup> davlat o'quv dasturida keltirilgan 5 ta rivojlanish markaz 1. Qurish, konstruksiyalash va matematika. 2. Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish, 3. Til va nutq, 4. Fan va tabiat, 5. San'at markazlarida ishlashda samarali kechishini hamda maqsadga yetishida katta ro'l o'ynaydi. Steam loyihasi tarbiyachida bolalar bilan birgalikda ishlashda beshta sohani bolalarga singdirib bilim salohiyatini rivojlanishini oshiradi.

So'ngi yillarda ushbu ta'limgiz tizimi kabi ko'plab yangi loyiham, yangi dastur va yangidan yangi metodlar ishlab chiqiyabdi hamda rivojlangan mamlakatlarning ta'limgiz tizimidan olib kelinib o'rganilib ta'limgiz tizimimizda tadbiq qiliniyabdi.

"Keys-stadi" metodi:

Ingiliz faylasufi Gerbert Spenser "Ta'limning buyuk maqsadi bilim berish emas, balki hatti harakatlarga o'rgatishdir"<sup>4</sup>, deb yozgan edi. Uning fikricha barcha nazariy berilgan bilimlarni amaliyot bilan bog'lash muhimligi uqtirilgan. Shu bois bugungi kunda yetishib chiqiyotgan pedagog kadirlarni o'qitiladigan barcha fanlar orqali bo'lajak tarbiyachi pedagog kadirlarni nazariy bilimlar bilan qurollantirib, amaliy ko'nikmalarni shakillantirish va malaka hosil qilish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Bo'lajak tarbiyachilarini bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, fikrlash, kreativligini oshirish borasida ta'limming interfaol metodlaridan biri "keys-stade" bo'lib, bugungi kunda turli muammolarni hal etishda hamda yechim topishda asqotmoqda.

**Mashg'ulotlarda "kreativ yo'l xaritasi"ga ko'ra quydagi to'rtta yo'naliш bo'yicha harakatlanadi va ulardagи harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilari (Patti Drepeau) sanaladi:**

1) Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;

2) Mashg'ulotlarda qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;

3) Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;

4) Kutiladigan natija.

Shunday qilib, ta'limgizda kreativ fikrlash va zamonaviy axborot texnologiyalari foydalanishda kompyuter vositalari yordamida olib boriladigan dars an'anaviy mashg'ulotdan o'quv jarayonini tashkil etish va unda ishlataladigan metodlar bilan ham farqlanadi. Mashg'ulot jarayoni bolaning mustaqil bilim olishiga asoslanadi. Bu tamoyil mashg'ulot jarayonida ishtiroy etuvchi sub'ektlarning munosabatini va tarbiyacining jarayondagi rolini aniqlaydi. Shuning uchun ham axborot texnologiyalari, kompyuter asosida mashg'uloqiziqish, o'zini-o'zi boshqarish, yangi bilimlarni o'zlashtirib borishga intilish dars oxirigacha saqlanib qoladi. Kreativ ta'limgiz texnologiyasida, kreativ ta'limgiz jarayonini samarasini oshirish uchun har xil metodlardan foydalanish kerak.

<sup>1</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving. – Alexandria- Virginia, USA: ASCD,2014.-p4

<sup>2</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving. – Alexandria- Virginia, USA: ASCD,2014.-p7

<sup>3</sup> "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limgiz tashkiloti Vazirligi. Toshkent 2022

<sup>4</sup> Home ilmiy maqola T.E. Xo'jamberdiyev E-darslik.tdpu.uz 2018

Masalan: “Idrok xarita”, “Atirgul”, “Tsxemasi”, “Zinama-zina”, “FSMU”, “Aqliy hujum”, “Esse”, “bayon, insho” yozish, “Blits sorov” kabi texnologiya va metodlar. Bunday darslarda o‘quvchining bilim olish motivatsiyasi oshib boradi.

*Foydalanilgan adabiyotlar:*

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF5198-tonli Farmoni. 2017-yil 30-sentabr. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 06/17/5198/0043-ton; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-ton.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldaggi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-ton Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-ton,
- 3.O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-ton Qarori /qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020 y., 09/20/802/1658-ton
- 4.“Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi BMTning Bolalar jamg‘armasi YuNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko‘magi yordamida yaratildi va nashr etildi. – T.: 2018.
- 5.Muslimov N, Usmonboyeva M, Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo’llanma. – Toshkent 2015, 120-bet.
- 6.“Kreativ pedagogika” B.E. Karimova/ Toshkent “innovatsiya ziyo” 2022y,
- 7.Xoliquov “pedagogik mahorat”/ Toshkent “iqtisod-moliya” 2011y.
- 8.Toshkent 2022y, Drepeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). -Aleksandra-Virginia, USA: ASCD, 2014 p-4-5.
- 9.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar- Qarshi nafas . 2000y.
- 10.<<SCIENTIFIC PROGRESS>> Scientific Journal ISSN:2118-1601/// \Volume:1, ISSUE:4 Kreativlik pedagogik faoliyatni rivojlantirishning asosi omili sifatida. S.Y. Saidg’aniyeva, Sh.R.Abdullayeva, I.a.Abduqunduzov,
11. [https://dzen.ru/a/X-UUPbWQzx1kK\\_ED](https://dzen.ru/a/X-UUPbWQzx1kK_ED).

*JURAYEVA M.* – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti.

*PO’LATOVA R.* – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti.

**D. Mirzabdullayeva, Sh. Xaydaraliyeva**

## **YOSH AVLODNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH VA MADANIYAT SOHASINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH MASALALARI**

*Xalqning qadriyatlari va madaniyati shu xalqni dunyoga tanituvchi, uning dunyo mavqeyidagi o'rnini belgilovchi asosiy vositadir. Ushbu maqolada o'zbek xalqining o'ziga xos qadriyatlari tarixi va madaniyat sohasida amalga oshirilgan va kelgusida bajarilishi ko'zda tutilgan chora-tadbirlar, ularning yosh avlod haytidagi o'rni to'g'risida so'z yuritilgan.*

*Kalit so'z:ma'naviy salohiyat, milliy qadriyatlari, qaror, farmon, baxshichilik, maqom, taraqqiyot strategiyasi.*

Bugungi kundagi jamiyat orasidagi dolzarb masalalardan biri- bu mamlakatimiz yosollarini vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishida san'at va madaniyat sohalarini rolini kuchaytirishdan iboratdir. Yosh avlodning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish kabi masalalar bugun davlat qonunlarida ham o'z aksini topmoqda. 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun hamda uning uzviy davomi bo'lган 2017-yil 5-iyuldag'i "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106 kabi ko'plab qaror va qonunlar ijrosi buning yorqin dalilidir. [1]

Xalqimizning asrlardan-asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonlar davomida shakllangan. Mustamlakachilik davrlarida o'zbek xalqining avlodlardan o'tib, xalqning ma'naviy ongiga singib ketgan qadriyat va an'analarini yo'q qilishga bir necha bora urinishlar bo'lgan. Lekin bir millatning o'tmishi, buguni va kelajagining muhim omili bo'lgan milliy an'ana va qadriyatlari millat jonkuyarlari tomonidan asrab qolindi. Ular nafaqat milliy bayramlar va kiyimlarimiz, hunarmandchilik, qolaversa, umuminsoniy fazilatlarimizni ham o'z negzida birlashtirgan. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lismish, tanigan-tanimaganga yordam qo'lini cho'zish, to'g'rilik yo'lini tanlash, halol bo'lismish-davrlar osha hayotimizning asosiy bo'lagiga aylanib ulgurgan. Lekin bu kabi yaxshi ishlarni bajarishning o'zi yetarli emas. Insonga uning irodasi qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, kasbga, atrofdagilarga, mehnatga, ruhan va qalban mehrli-oqibatli bo'lismish tuyg'ularini shakllantirish, yuragida ulug' maqsadlar tug'ilishiga va jamiyatda borayotgan hodisalarga o'z fikrimi bildira olishi lozim. Bularga buyuk ajdodlarimizning biz yosh avlodga qoldirgan o'gtlari bosh sababdir. Abdulla Avloniying "Tarbiya biz uchun yo'layot yo'mamot masalasidir" hikmati bugungi kunga qadar o'z ta'sirini yo'qotgan emas.[2] Negaki, insoniylik insonning ongidagi tarbiyadan boshlanadi. Tarbiya- ezgulikning asosi deb be'jizga aytishmagan. Nafaqat biz dunyodagi barcha millat va elatlarning asrlardan buyon saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlari mavjud. Ular nimaning hisobiga yillar osha o'z qiymatini yo'qotmay kelmoqda? Har bir millatning an'ana va qadriyatlari negzida yosh avlodni yetuklikka chorlovchi, ularni ajdodlarga munosib farzand bo'lib yetishishiga, moddiy va ma'naviy me'roslarga hurmat ruhida tarbiyalovchi asosiy vazifa turadi. Bugungi kunda ham mamlakatimizda yoshlarda milliy qadriyatlarmizga bo'lgan hurmatni oshirish, ularga ma'naviy boyliklarimizning qiymatini yanada yaxshiroq tanishitirish bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda. Bunga yorqin misol qilib, maktab va universitetlarda tashkil etilayotgan qadriyatlarmizni saqlab qolinishiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan tanlovlar va tadbrilarni keltirish mumkin. Qolaversa, dam olish kunlari yoki darsdan keyin o'quvchilarning tarixiy muzeysiga kutubxonasi; buyuk shoir va yozuvchilarimizning uy-muzeylerliga tashrif buyurib, ularning o'tmish faoliyati bilan yaqindan tanishayotganlari yanada quvonarli. Yana aytilib o'tishga arzirlisi shuki, qadriyatlarmizni saqlab qolishga, ularga nisbatan insonlarda hurmat hissini kuchaytirishda tashkil etilayotgan tanlov-konferensiylarning tashkil etilayotgani. Kuni kecha Yoshlar ishlari agentligi tomonidan e'lon qilingan Respublika konferensiysi bunga yorqin misoldir. Ushbu konferensiya 3 ta sho'balar bo'yicha amalga oshirildi:

1. Globallashuv davrida milliy qadriyatlarni asrab-avaylashning muhim tomonlari
2. Yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ta'limining muhim konteksi sifatida
3. Yoshlar milliy hunarmandchiligin rivojlantirish, qadriyatlarni mustahkamlashdagi ahamiyatlari.[3]

Maqola mualliflarini bir yerda jamlagan ushbu respublika konferensiyasida kelajakda milliy an'ana va qadriyatlarmizni yanada yuksaltirish bo'yicha fikrlar almashilib, yoshlarning bu masalaga nisbatan shaxsiy munosabat, takliflari tinglandi. Qolaversa, jamiyat orasida milliyligimizni targ'ib etuvchi "challenge" va tadbirlar o'tkazilishi muhokama qilindi. Bundan tashqari yosh tadbirkor Iroda Berdiyeva rahbarligidagi "Iroda fashion

home” mas’uliyati cheklangan tikuv sexi ham milliy kiyimlarimizni tikib, ommaga taqdim etayotgani ham qdrivatlarimizga bo’lgan cheksiz xurmatdir.

Millat yuksalishining muhim ustunlaridan biri bo’lgan madaniyat sohasini tubdan isloq qilish “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 5-fevralda imzolangan Farmonlardan boshlandi. O’tgan davrdagi hayotiy tajriba shuni ko’rsatadiki, bitta vazirlikda madanyat va sport sohalarining ko’p qirrali va murakkab jihatlarini to’liq o’rganilmasdan birlashtirilganligi madaniyat va san’at sohasining yirik yo’nalishlari bo’lgan teatrlar, muzeylar, bolalar musiqa va san’at muktablari, mumtoz musiqa, madaniyat markazlari, madaniyat va istirohat bog’lari va xalq ijodiyoti san’ati turlarini ommalashtirish hammada ommaviy jismoniy tarbiyani keng miqyosda rivojlantirish bo’yicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilib, Prezident Farmoniga muvofiq uning negzida O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O’zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo’mitasi tashkil etildi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mamlakat aholisining hayoti uchun zarur bo’lgan ikkita keng ko’lamli sohaning taraqqiy etishiga to’liq shart-sharoit yaratildi. [4]

“Bir haqiqatni hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak, mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi.”,-deb ta’kidlab o’tgan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi madaniyat va san’at shiddatlari islohotlarni amalga oshirishda o’ta muhim va ayni paytda juda zarur omillardan biri ekanligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan “Xalqaro baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi (2019-yil 14-may), “O’zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi (2018-yil 26-avgust); Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san’ati markazi tashkil etish va har ikki yilda “Eng yaxshi maqom sozandasisi”, “Eng yaxshi maqom ustozsi”, “Eng yosh maqomchi” kabi nominatsiyalar bo’yicha festivalni o’tkazish to’g’risida qaror va farmonlar ishlab chiqilgani buning isbotidir. Qolaversa, yaqin yillarda ko’plab muzeylarning ta’mirlanganligi, yangilanganligi, san’at va musiqa muktablarining soni ko’paytirilganligi, o’rta maxsus maktablar musiqa asboblari bilan ta’mirlanganligi ham yoshlarning madaniyat sohasiga bo’lgan qiziqishlarini orttirdi. Hozirgi kunda yangi ishlab chiqilgan “Taraqqiyot strategiyasi”da ham ma’naviy-ma’rifiy sohaga alohida bo’lim ajratilishi va uning ichiga 2022-2026-yillar mobaynida madaniyat va san’at sohasida amalga oshiriladigan ishlar rejasini kiritilishi ham sohada qaratilgan yuksak e’tibor namunasidir.[5]

#### *Foydalaniqan adabiyotlar:*

- 1.<https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarni-milliy-qadriyatlar-ruhida-tarbiyalashda-oila-mahalla-va-ta-lim-muassasalarining-roli/viewer>
- 2.<https://iiau.uz/oz/news/2113>
- 3.Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahar 2023-yil 21-novabr. Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti
- 4.Haydarov. Madaniyat-milliy yuksalish poydevori. “Oltin meros press” nashriyoti. 2021 yil.
- 5.Mirziyoyev Sh. Yangi O’zbekiston strategiyasi.- Toshkent: O’zbekiston, 2021.- B 464
- 6.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna. Alieva Zulkhumor Jabbor qizi. Ways to prevent adolescent conflicts. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020, Part II P.69- 71
- 7.Д.Э.Мирзабдуллаева. Конфликты в подростковом возрасте и пути их разрешения. NovaInfo. Ru 2 (45), 305-310.
- 8.Мирзабдуллаева Dilkhumor Эркиновна.Психологик тренинг асослари.ўкув кўлланма.2021. Том-978.177 Б. Globe Edit, Латвия
- 9.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna, Alieva Zulkhumor Jabbor qizi. Sociopsychological technologies as a means of coordinating adolescent conflicts. Евразийский научный журнал 2 (2), C.50-5
- 10.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna. Causes of conflicts between teenagers and parents and ways to prevent them. International Conference Proceedings. «Science and practice: a new level of integration in the modern world» April 25, 2020, Sheffield,UK P.203-206
- 11.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna, Alieva Zulkhumor Jabbor qizi. Stress tolerance of teachers as the ability to prevent conflicts. International Conference Proceedings T.3.P-80-85. ISBN 978-1-941655-00-9
- 12.Мирзабдуллаева Dilkhumor Эркиновна. Ўсмир ва ота-оналар муносабатларидаги низолар муаммоси ва уларни мувофиқлаштириш ўйлари. НамДУ Илмий ахборотномаси.2020 Том-1 106. Maxcус сон.Б. 609-613.
- 13.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna.Ways and methods of resolving pedagogical conflicts between teachers and students in a modern school. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.2020. Vol 8.12
- 14.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna, Alieva Zulkhumor Jabbor qizi.The problem of conflicts in adolescent psychology with teachers and parents. International Scientific Journal «Internauka» 2020.t1. 3 (83), P-21-23

**MIRZABDULLAYEVA D.** – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali, dotcenti.

**XAYDARALIYEVA SH.** – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali, talabasi.

**D. Mirzabdullayeva, H. G`ulomova, D. Otamjanova**

## **SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA`LIM-TARBIYA HAQIDAGI FIKRLARI VA OILA TARBIYASINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI**

*Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining ta`lim va tarbiya borasida bildirgan fikrlari hamda tarbiyaning bugungi kundagi o`rni, farzandlar tarbiyasida ularning yetuk, barkamol avlod bo`lib yetishishida sharq mutafakkirlarining qarashlari va ahamiyati. Tarbiya jarayonida oilaning o`rni, bolaga tog`ri tarbiya berishning hozirgi kundagi ahamiyati hamda buyuk ajodollarimizning bizga qoldirgan tajribalari haqida ma`lumot beriladi.*

*Kalit so`zlar:* Tarbiyaning ahamiyati, Sharq mutafakkirlari, Ota-onaning o`rni, yoshlar kelajagi.

Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma`naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Insonlarning jamiyatda yashashi uchun zarur bo`lgan xususiyatlarga ega bo`lishini ta`minlash yo`lida ko`riladigan chora tadbirlar yig`indisi hisoblanadi. Tarbiya-arabcha so`zdan olingan bo`lib, parvarish qilmoq, ta`lim bermoq, o`rganish, odob o`rgatish degan ma`nolarni bildiradi.

Islom dinining muqaddas kitobi bo`lgan «Qur`oni Karim»da inson mohiyati to`la ochib berilib komil inson tarbiyasi bosh maqsad qilib qo`yilgan edi.» Qur`oni Karim»dagi ta`lim-tarbiyaga oid ulug` xazina Al-Buxoriy hazratlarining hadislardida beriladi. «Farzandlarining izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz» (38-hadis), »Hech bir ota o`z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi» (136-hadis). Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Xojib «Qutadg`u bilig» asarida bola tarbiyasi haqida to`xtlib: «Farzand qanchalik bilimli, aqli-hushli bo`lsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug` bo`ladi». U bola tarbiyasida otaning mas`uliyatiga alohida e`tibor qaratadi. Bunda ota o`z farzandini nazorat qilib, har xil hunarlar o`rgatsa, xulqi go`zal bo`lishi uchun farzandiga bilm siralarini o`rgatib borsa bola haqiqiy insoniy fazilatlarga ega bo`ladi. Ulug` bobokalomimiz Farobiyning fikricha bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda borilmog`i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo`lmog`i lozim degan xulosa kelib chiqadi. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo`lib, uni bolaning yoshligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini ta`kidlaydi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to`xtlib alla ikki vazifani bajaradi, deydi. Birinchisi uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag`ishlanadi. Ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo`sh uradi, bolasiga bo`lgan muhabbatidan onaning orzu umidi yurak to`ridan chin dildan aytildi. Abdulla Avloniying «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir», degan chuqur ma`noli fikri o`rinlidir. Abdulla Avloniying bu fikrlari asrlar bo`yi millatimiz uchun qanchalik muhim bo`lgan bo`lsa, hozirgi davrda bizga shunchalik, ko`proq ahamiyatga ega. Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarni insonning tabiatini bilan bog`laydi. Uning fikricha, inson o`z hayoti davomida bolalariga yaxshi hislatlari bilan ibrat bo`lmog`i zarurligini ta`kidlaydi. Ota-onsa har qanday harakat qilishda ehtiyyot bo`lmog`i zarurligini tushuntirib o`tadi. Ota – onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqarishi va yaxshi xulqlarni paydo bo`lishi bola ruhiyatiga ta`sir qilibgina qolmasdan, uning fiziologik o`sishiga ham yaqindan yordam beradi deb ko`rsatib o`tadi. Alisher Navoiy bobomiz ta`kidlashicha: Ota – onani hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga hurmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo`lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyoying obod bo`lishini istasang, shu ikki odamning roziligidini ol! Deb aytib o`tadi. Berdaq bobokalonimiz oilaning bola tarbiyasida, muhim o`rin tutishini alohida ta`kidlaydi, oilada ota – onalar bilan bolalar bilan bolalar o`rtasida o`zaro hurmat bo`lsa tarbiyada yaxshi natijalarga erishish mumkinligini tushuntiradi. Berdaqning uqtirishicha, inson tug`ilgandan boshlab tarbiyaga muhtojdir, uning ilk tarbiyachilari va albatta uning ota- onalari hisoblanadi. Uning fikricha barcha odamlar mehnatsevar, insonparvar va adolatli bo`lsa jamiyat gullab yashnaydi, rivojlanadi, buning uchun esa, xalqqa ta`lim berish, unda ijobjiy xulq atvorni tarbiyalash lozim degan fikrlarni keltirib o`tgan.

Tarbiyaning hozirgi kundagi ahamiyatini aytadigan bo`lsak, rivojlanib borayotgan zamonamizning o`smir yoshlari hayotida tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya inson hayotidagi eng muhim omil ekan, farzand birinchi tarbiyani oila davrasida oladi va unda oila azolarining o`rni muhim sanaladi. Farzand tarbiyani

oiladan olar ekan eng avvolo oilaviy muhit sog`lom bo`lishi zarur. Oila tarbiyasi – oilada ota-onas, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o`rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta`sirchan kuch- oilada ruhiy hotirjamlik, samimiyyun munosabat, ota-ona obrosining yuqori bo`lishi, bolaga talab qo`yishda oila kattalari o`rtasidagi birlikning saqlanishi , bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e`tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo`yish oilada qat`iy rejim va kun tartibini o`matish bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish, boladagi o`zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo`llab quvvatlash zarur. Oila qanchalik tartibli, uning a`zolari o`rtasidagi munosabat samimiyy bo`lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik muvoffaqiyatli bo`ladi. Oila tarbiyasida ota-onas obro`si ularning kuzatuvchanligi , sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bola dunyoga kelgan kundan ot-onanining bola tarbiyasi uchun javobgarligi ham jamiyatimizning qonunudir. Eng avvalo oilada so`ng jamiyatda yaxshi muhit bo`lishi kerak. Hozirgi kunda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga, yoshlarni zamon talabiga to`la javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun barcha shart sharoitlar yaratilgan. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Bola keyingi tarbiyalarni ustozlardan, do`stlaridan o`rganadi. Bola shaxs bo`lib yetishishi uchun maktabgacha ta`lim, boshlang`ich ta`limni ham egallashi zarur. Bolaga ta`lim va tarbiya berishda maktabning ham ro`li kattadir. Maktabda ham bolaning aqliy, axloqiy, jismoniy, ma`naviy, huquqiy, estetik tarbiyalari shakllantirib boriladi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so`ng xalqimiz tinch va mustaqil yashashni boshlashdi. Bolalar ham maktablarda yorug`-yorug` xonalarda o`qiy boshlashdi. Bu imkoniyatlar yoshlarning rivojlanishiga katta omil bo`lib xizmat qilyapti desak adashmagan bo`lamiz. Ta`lim va tarbiya tizimini o`zgartirmay turib, ongi, dunyoqarashni o`zgartirib bo`lmaydi. Tarbiya insonning insonligini ta`minlaydigan eng asosiy omildir. Inson qanday ekanligini tarbiyasidan bilsa bo`ladi. Shuning uchun ham hozir bola tarbiyasiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bolaga notinch oila, notinch maktab va boshqa boshqa muhitlar yomon ta`sir ko`rsatadi. Biz eng avvalo, qadimdan mutafakkirlarimiz bizga qoldirib ketgan tajribalarga tayanamiz. Mutafakkirlarimizning har bir so`zlarini inobatga olgan holda hozirgi zamonga tatbiq etib, ish ko`ramiz. Inson eng avvalo hurmat qilishni o`rganishi kerak deb o`ylayman. Ota-ona farzandiga ko`proq e`tibor berib, nazorat qilib turishi kerak. Insonning eski, yirtiq kiyim kiyishidan uning yangi lekin kir, yog`ini chiqarib kiyishi yomonroqdir deyilgan. Inson o`rganmoq va o`rgatmoq hamda o`qimoq va o`qitmoq uchun sog`lom bo`lmog`i kerak. Insonning ichki, ruhan o`ziga ishonchi yuqori bo`lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Inson hayotida tarbiyaning ahamiyati juda katta. Bolaga ilk tarbiyani ota – onasi beradi. Kelajak avlod hayoti mazmunli, o`zi tarbiyali, o`qimishli, mas`ulyatli, mustaqil, vijdonli bo`lishida buyuk mutafakkirlarimizning bizga qoldirgan buyuk merosi, tajribalari ahamiyati kattadir. Har bir ota ona farzandi tarbiyali bo`lishini, hayotda adashmasdan o`z o`rniga ega bo`lishini hohlaydi. Shunday ekan, bola yaxshi sharoitda tarbiyalansa u kelajakda yetuk va barkamol avlod bo`lib yetishadi. Yurtimizda sharoiti og`ir insonlar ham ko`pgina lekin yurtboshimiz tomonidan bolalarning to`g`ri va yaxshi shart-sharoitda ulg`ayishi uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Inson o`zi yaxshi tarbiya olsa, kelajakda ham o`z farzandlariga to`g`ri tarbiya bera oladi. Bolaga tarbiya berishda ehtiyot bo`lish kerak. Bir marta noto`g`ri tarbiya bolada oxirigacha saqlanib qoladi. Bolani, bir yangi unib chiqgan nihol deb oladigan bo`lsak, uni noto`g`ri o`sib qolmasligi uchun to`g`ri parvarish berish lozim. Agarda nihol noto`g`ri o`sib, shunday rivojlanib borsa, uni to`g`rilashning iloji yo`q. Kelajakda u nihol hayot qiyinchiliklarida qoqilishi mumkin. Bola tarbiyasini ham xuddi shu nihol deb oladigan bo`lsak, bolada yomon tarbiya natijasida yillar davomida yomon xulq paydo bo`ladi va bolani jarlik tomon yetaklaydi. Bola eng avvalo ota – onasiga yaqinlariga zulm qila boshlaydi. Shuning uchun ham prezidentimiz ta`lim va tarbiya jarayoniga asosiy ahamiyatni qaratmoqlar. Chunki kelajak yoshlar qo`lida. Tarbiyaning poydevori oila deb o`ylayman. Ta`lim va tarbiyaning rivojida sharq mutafakkirlarining ham ahamiyati katta. Yuqorida buyuk mutafakkirlarimizning tarbiya to`g`risidagi fikrlari bilan tanishib chiqdik , bundan shuni anglashimiz lozimki, tarbiya har bir inson hayoti uchun muhim omil sanaladi. Shunday ekan, har bir ota-onas va bolaga mas`ul shaxslar o`z burch va mas`ulyatlarini his qilishlari majbur. Negaki, kelajak yosh avlodning qo`lida ekan ularni to`g`ri tarbiyalash, hayotga tayyorlash barcha jamiyat a`zolarining burchidir!

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.M.X.To`xtaxodjayeva, S.Nishonova, J.Hasanboyev , M. Usmonboyeva, S.Madiyarova A. Qoldibekova , N.Nishonova , N.Saidahmedova .»Pedagogika »Toshkent 2010-yil
- 2.Yusuf Xos Hojib Qutadg` u bilig- T,2008
- 3.Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz» Toshkent. 2017
- 4.Abdulla Avloniy «Turkiy guliston Yoxud axloq » Toshkent. 1992 yil.

- 
- 5.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna. Alieva Zulkhumor Jabbor qizi. Ways to prevent adolescent conflicts. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020, Part II P.69- 718.
- 6.Д.Э.Мирзабдуллаева. Конфликты в подростковом возрасте и пути их разрешения. NovaInfo. Ru 2 (45), 305-310
- 7.Мирзабдуллаева Дилхумор Эркиновна.Психологик тренинг асослари.ўкув қўлланма.2021. Том-978.177 Б. Globe Edit, Латвия
- 8.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna, Alieva Zulkhumor Jabbor qizi. Sociopsychological technologies as a means of coordinating adolescent conflicts. Евразийский научный журнал 2 (2), C.50-5.
- 9.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna. Causes of conflicts between teenagers and parents and ways to prevent them. International Conference Proceedings. «Science and practice: a new level of integration in the modern world» April 25, 2020, Sheffield, UK P.203-206.
- 10.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna, Alieva Zulkhumor Jabbor qizi. Stress tolerance of teachers as the ability to prevent conflicts .International Conference Proceedings T.3.P-80-85. ISBN 978-1-941655-00-9
- 11.Мирзабдуллаева Дилхумор Эркиновна. Ўсмир ва ота-оналар муносабатларидағи низолар муаммоси ва уларни мувоғиқлаштириш йўллари. НамДУ Илмий ахборотномаси.2020 Том-1 106. Maxsus сон.Б. 609-613.
- 12.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna.Ways and methods of resolving pedagogical conflicts between teachers and students in a modern school. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.2020. Vol 8.12
- 13.Mirzabdullaeva Dilkhumor Erkinovna, Alieva Zulkhumor Jabbor qizi.The problem of conflicts in adolescent psychology with teachers and parents. International Scientific Journal «Intermauka» 2020.т1. 3 (83), P-21-23
- 

*MIRZABDULLAYEVA D.* – Toshkent Kimyo xalqaro universteti, dotcenti.

*G'ULOMOVA H.* – Toshkent Kimyo xalqaro universteti, 1-bosqich talabalari.

*OTAMJANOVA D.* – Toshkent Kimyo xalqaro universteti, 1-bosqich talabalari.

**M.Q. G'iyosiddinov, M.X. Vohidova**

## **DARS JARAYONIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

*Ushbu maqolada Zamonaivy ta'lism texnologiyalari ta'lism jarayonida qanchalik muhim ekanligi, Zamonaivy ta'lism texnologiyalari haqida ma'lumotlar va ularning dars jarayonidagi ustun jihatlari to'g'risida ma'lumotlar jamlangan*

**Kalit so'zlar:** Ta'lism, Tarbiya Dars jarayoni, Kompetensiya Texnologiya, Usul, Shakl, Yo'l. Maqsad.

Dars – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida aniq maqsadga yo'naltirilgan birgalikdagi faolyat jarayoni [1]. O'qituvchi o'z bilim, ko'nikma, malakasi va pedagogik mahorati orqali dars mashg'ulotlarini olib boradilar. O'quvchilar esa bilish jarayoninda, o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash, va amaliyotga tadbiq etish kabi ko'nikma va malakalarini shakllantirib boradilar. O'quvchilar bilim olish jarayonida, mustaqil ishlashi, sinfan tashqari, auditoriyadan tashqari yoki maktabdan tashqari ishlar shaklida ta'lism tarbiya jarayoni masalalarini hal etadi. Hozirgi kundagi dars mashg'ulotlari dunyo talablariga javob beradigan, davlat va jamiyat tomonidan tanlab berilgan qoida va me'zonlarga muvofiq holda olib boriladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning ta'lism tizimiga bir nazar soladigan bo'lsak, deyarlik barcha davlatlar dars jarayonida zamonaivy ta'lism texnologiyalaridan foydalanishni samaraliroq ekanligini ta'kidlashmoqda. XXI asr texnologiyalar asri ekanligi va bu davr yoshlarining barchasi zamonaivy texnologilarga qiziqishini inobatga olgan holda, Yevropa davlatlari nafaqat Oliy va o'rta ta'lism muassasalarida balki boshlang'ich va maktabgacha ta'lism muassasalarida ham zamonaivy ta'lism texnologiyalaridan foydalayotganligi va yaxshi natijalarga erishayotgani sir emas. Ularning natijalarini PISA va PIRLS baholash dasturidagi natijalarida ham bilib olish qiyin emas. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yildagi 997-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston ham quyidagi baholash dasturi bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etadi.

- PIRLS
- TIMSS
- PISA
- TALIS
- EGRA
- EGMA

Ushbu baholash dasturlariga muvofiq, jahon ta'lism tajribalaridan kelib chiqib ta'lism tizimimizda zamonaivy ta'lism texnologiyalaridan foydalanish yangi bosqichga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 6-noyabrdagi 6108-sonli famoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi barcha oliy ta'lism, o'rta ta'lism, boshlang'ich va maktabgacha ta'lism muassasalarida zamonaivy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati aytib o'tilgan. Ushbu qaror ijrosi sifatida ta'lism tizimida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

-oliy va o'rta ta'lism tashkilotlarida zamonaivy ta'lism texnologiyalari sifatida eng zamonaivy monitorlar, proyektorlar, smart doskalardan foydalanishni va ta'lism muassasalari moddiy-texnik ba'zasi bosqichma-bosqich yaxshilanayotgani;

-boshlangich sinf o'quvchilariga ham informatika darslari qo'yilgani;

-o'quvchilarini qiziqirish uchun dars mashg'ulotlari olib borishda zamonaivy ta'lism texnologiyalaridan foydalanilayotgani;

-har bir davlat standartidagi kitoblar QR kodlar bilan ta'minlanganligi;

-maktabgacha ta'lism muassasalarida ham bolalarga zamonaivy texnologiyalar asosida ta'lism berilayotganligi;

-6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgaha ta'lism tashkilotlarida majburiy tayyorlov darslari yo'lga qo'yilganligi;

-xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishni boshlaganligi;

Yuqorida aytib o'tilgan va undan boshqa amalga oshirilayotgan ishlar hozirda ta'lism sifatini yanada yaxshilanishiga, o'quvchilarning dars jarayoniga va zamonaivy ta'lism texnologilariga qiziqishini ortishiga olib kelmoqda.

Ta'lim texnologiyalarining eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtaida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talaba mustaqil fikrlay olsa, ijodiy ishlay olsa, izlansa, tahlil eta olsa, o'zi xulosa qila olsa, o'ziga, guruhga, guruh esa unga bera bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlar uchun imkoniyat va sharoit yaratna olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonida o'qitish texnologiyasi – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Ta'lim texnologiyasining maqsadi o'rganilayotgan o'quv predmetining maqsadlaridan va mazmunidan, tarbiyaviy ta'siridan kelib chiqqan holda aniqlanadi hamda ta'lim maqsadiga mansub bo'ladi. Ya'ni zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, fanga, mavzuning mohiyatiga qarab tanlanadi.

Ta'lim mazmuni, o'quv materiali quyidagilarda o'z aksini topadi: mazkur fanni o'qitish mazmunini o'zida aks ettirgan ta'lim texnologiyalari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarining matni, axborot manbalari.

Ta'lim texnologiyalari tizim sifatida quyidagilarga bo'linadi;

- Ta'lim maqsadi
- Talim mazmuni
- Ta'lim shakllari, usullari va vositalari
- Nazorat qilish
- Ta'lim natijasi

Ta'lim texnologiyasining o'ziga xos belgilari

1. Ta'lim maqsadlarini aniq belgilanishi
2. Ta'limda qo'yilgan maqsadga yo'naltirish.
3. Natijani kafolatlash
4. Ta'lim natijasining shaxsiy qiymatini oshirish
5. Joriy natijalarni baholash
6. O'quv jarayonini kichik mantiqiy qadamlarga bo'lish
7. Monitoringa asoslangan holda tuzatishlar kiritish
8. Ta'limni takrorlash va nazorat qilish
9. Tuzatish va o'zgartirish kiritilgan ta'lim natijasini baholash
10. Etalon darajasida o'zlashtirish va baholash.

#### **Ta'lim texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismlari shularda iborat [2, 19- 20-21 b.]**

Ta'lim texnologiyalari		
Motiv	Jarayon	Natija
Ehtiyoj	Vosita	Bilim
Maqsad	Usul	Ko'nikma
Qiziqish	Shakl	Malaka
Havas	Yo'l	Ta'lim
Manfaat	Bilish faoliyati	Tarbiya
Nazorat	Kompetensiya	

Ayni vaqtida ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarblashib bormoqda. Hozir ta'limda STEAM dasturidan foydalanish ham o'quvchilarni dars jarayonlari mehnatga, san'atga va albatta zamonaviy texnologiyalarga bo'lган qiziqishlarini yanada orttirmoqda. STEAM atamasi ilk bor AQSH ta'lim dasturiga kiritilgan bo'lib, o'quvchilarning ilmiy-teknika yo'nalishlarida kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik u rivojlanib borgan. STEAM dasturi fanlararo uzviy aloqada dars mashg'ulotlarini olib brogan hotlatda, mantiqiy fikrslash, san'at, mehnat, zamoniy texnologiyalarni o'rganish va ulardan foydalana olish qobiliyatlarini o'quvchilarda shakllantirishi lozim,

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta'lim texnologiyasi yurtimizga olib kirilishining asosiy sababi shundaki - eng avvalo bu zamon talabi. O'zbekiston yoshlari ham rivojlagan manalakat yoshlari qatorida bilim olishlar, ular kabi bilim va tajribalarga ega bo'lishlari ana shu texnologillardan foydalana olishlari, yetuk kadr bo'lib yetishishlari va innovatsion texnologiyalar bilan hamnafas bo'lib yashash uchun hamdir.

*Foydalaniłgan adabiyotlar*

- 1.B. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent- 2017
- 2.SH. S.Shomiyeva, M.K.Xoshimova, SH.R.Mirzayeva, M.M.Qo'ziboyeva. Ta'lím texnologiyalari. Toshkent 2020.
- 3.Tolipov O'. No'rmonova. "Ta'lím jarayonida zamonaviy pedagogic texnologiyalar" G'. G'X alq ta'limi- Toshkent 2002.
- 4.G'ofurovich T.X.A. Esonali o'g'l M.Y.2002.Application of Digital Economy; Essence.Features and Stages of Developmant. Academia Globe;
- 5.Abdurosulovich N. M. 2022. "O'ZBEKISTONDA TERMOELEKTRIK GENERATORLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.SO'NGGI TADQIQOTLAR NAZARIYASI."

---

*G'YOSIDDINOV MUHRIDDIN QOBULJON O'G'LI – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali, o'qituvchisi.*

*VOHIDOVA MADINA XUSNITDIN QIZI – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali, talabasi.*

**M.Q. G'iyosiddinov, H.Sh. Mashrabboyeva**

## **NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI TASNIF VA UALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLAR**

*Ushbu maqolada rivojlanishida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar tasnifi va ular bilan olib boriladigan pedagogik - korreksion ishlar haqida fikrlar yuritilgan. Nutq nuqsonining aslida nima ekanligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

*Kalit so'z: Nuqson, korreksiya, aqli zaiflik, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopedik ish, analizatorlar.*

Bola rivojlanishidagi nuqsonlar har xil bo'ladi, ularning ba'zilari batamom bartaraf etiladi, ba'zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, bilinmaydigan holga keltiriladi, boshqalari esa kompensatsiyalanadi. Masalan, bola nutqida og'ir nuqson bo'lsa, ilk yoshda to'g'ri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar ta'sirida uni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan bo'lsa (masalan, aqli zaiflik shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to'liq bartaraf etib bo'limasa ham, biroq kamaytirish, ko'zga ko'rinxmaydigan, sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin. Maxsus pedagogika amaliyotida yana shunday toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar kuzatiladi, 6 ulardagi nuqsonni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo'lmaydi, masalan, tug'ma ko'rlik yoki karlikning ayrim turlari shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensatsiyalash, o'rnini bosish mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyatida muammosi bo'lgan bolalar esa imoishora, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin. Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

—surdopedagogika (lotincha surdus – kar, gung so'zidan olingen) eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

—tiflopedagogika (yunoncha tiflos – ko'r, so'qir so'zidan olingen) – ko'zi ojiz bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shuqullanadigan fan;

—oligofrenopedagogika (yunoncha oligos – kam, fren – aql), so'zlaridan olingen, – aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

—logopediya (yunoncha logos – so'z, padeo – tarbiya so'zlaridan olingen) – og'ir nuq nuqsonlarini o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan. Respublikamizning barcha viloyatlarida zamon talablariga muvofiq alohida yordamga muhtoj bolalarning differensial va integratsiyalashgan, inklyuziv ta'limi barcha yo'nalishlar bo'yicha jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Butunjahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "O'zbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" kabi va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor aloxida yordamga muxtoj bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rnini topib ketish huquqlariga egadirlar.

Rivojlanish prinsipi nutq kamchiligining kelib chiqish yo'lini, uning rivojlanishini tahlil qilishni ko'zda tutadi. Bunda kamchilikning kelib chiqish sababalarini rivojlanish jarayonida qanday o'zgarishlar natijasi ekanligini ko'rsatish – asosiy vazifadir. Nutqdagi asosiy funksiyalarning buzilishi kishi faoliyatiga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi, uning faolligini pasaytiradi, og'ir ruhiy kechinmalar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, ayrim so'zlarining noto'g'ri talaffuz etilishi kishini noqulay vaziyatga solib qo'yishi bilan birga, uni atrofdagilar bilan muomala qilishida qiy nab qo'yadi, u gapirganda o'z fikrini to'la anglata olmaydi. Nutq kamchiliklarining og'ir turlari (alaliya, rinolaliya, tutilib gapiresh va boshqalar) maktab dasturini o'zlashtirishga, keyinchalik, kasb tanlashga, ba'zan, umuman o'qishga to'sqinlik qiladi, bilish faoliyati rivojlanishini susaytiradi, ba'zilarda intellektual yetishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtayi nazarda, nutqdagi kamchiliklarni boshqa ruhiy jarayonlar bilan bog'langan holda o'rganish prinsipi amal qilish nihoyatda zarur.

Nutq kamchiliklari ko'p hollarda biologik va ijtimoiy omillarning birgalashib ta'sir o'tkazishi natijasida paydo bo'ladi. 130 Logopedik ishning samarodorligi nutq kamchiliklari kelib chiqish sabablari, mexanizmlari,

turlarini to‘g‘ri aniqlashga bog‘liqdir. Bu o‘rinda ontogenetik, etiopatogenetik prinsiplarni ahamiyati katta. Nutq kamchiliklarini o‘rganish, aniqlash, ularni bartaraf etishda logoped barcha didaktik prinsiplarga tayangan holda ish tutadi. Logopedik ishni tashkil etishda, har qaysi bolaga xos xususiyatlarni hisobga olish, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirish, ta‘limming o‘quvchilarga xos bo‘lishi, ta‘lim va tarbiyaning birligi prinsipiga amal qilish, onglilik, aktivlik va mustaqillik kabi prinsiplarning ahamiyati ayniqsa katta. Nutq nuqsoni logopediya fanida muayyan tilning me’yorlardan chetga chiqish deb ta‘riflanadi. O.V.Pravdina o‘zining «Logopediya» kitobida logopedik nutq nuqsonlarini quyidagicha harakterlagan:

– Nutq nuqsoni o‘z-o‘zidan barham topmaydi, balki vaqt o‘tgan sari yanada mustahkamlanib, zo‘rayib boradi.

– Nutq nuqsoni gapiruvchining yoshiga mos kelmaydi.

– Nutqiy nuqsonlari bo‘lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo‘ladi.

– Og‘ir nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga, balki umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuqoridaq ko‘rsatilgan nutq nuqsonlari o‘z xususiyatlari jihatidan bolalarda va katta yoshdagagi kishilarda ba’zan vaqtincha uchrab turadigan nutqiy kamchiliklardan farq qiladi. Yosh bolalarda, keyinchalik o‘zidan-o‘zi to‘g‘rilanib, barham topib ketadi. Kattalarda esa bunday hodisalar asosan charchash, hayajonlanish, asabiylashish natijasida uchrab turadi. Ular ko‘pincha o‘z xatolarini sezib, bularni tuzatishga harakat qiladilar. Goho esa sezmasliklari ham mumkin. Lekin vaqt bilan bunday xatolar ham o‘z-o‘zidan to‘g‘rilanib ketadi. Nutqiy nuqsonlar ajnabiylarda, boshqa millatli kishilarda ham kuzatilishi mumkin. Ular tilni o‘rganib borganlari sari, nutqdagi kamchiliklar barham topib boraveradi. Nutq kamchiliklari kelib chiqish sabablariga ko‘ra logopediya fanida organik va funksional xillarga bo‘linadi. Organik nutq nuqsonlari nutqiy analizatorning tuzilishidagi kamchiliklarga aloqador bo‘lib, bu analizatorning qaysi bo‘limida shikastlanganiga qarab markaziy yoki periferik turlarga bo‘linadi. Funksional nutq nuqsonlarida analizator tuzilishida o‘zgarishlar kuzatilmaydi.

Noto‘g‘ri tarbiya ota-onha, tarbiyachi yoki o‘qituvchi nutqidagi kamchiliklarga taqlid etish natijasida yoki noo‘rin reflekslarning mustahkamlanib qolishi funksional nutq nuqsonlariga sabab bo‘lishi mumkin. Funksional nuqsonlar nerv jarayonlari o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, analizator faoliyatidagi boshqa kamchiliklardan kelib chiqishi ham mumkin. Nutq analizatori qaysi bo‘limining o‘zgarib qolganiga qarab funksional nutq nuqsonlari ham markaziy yoki periferik xarakterda bo‘ladi. Logopediya fani surdopedagogika va tiflopedagogikalar ichidan ajralib, XIX asrning ikkinchi yarmida tibbiy fanlarning alohida bir oqimi bo‘lib vujudga keldi. Nutq nuqsonlarini asosan shifokorlar tuzatishar edi, biroq «davolash» ishlari yaxshi natija bermas edi. Nutqiy kamchiliklarning ayrim belgilari nuqson sifatida o‘rganilar edi. Nutq komponentlari, nutqning sistemali tuzilishi haqidagi ma’lumotlar o‘scha davrlarda hali bo‘lmaganligi tufayli, nutq kamchiliklarni o‘rganish, aniqlash, bartaraf etish usullari ham noto‘g‘ri belgilangan. Asosan mexanik mashqlardan foydalanilar edi. Hozirgi kunda logopediya fani pedagogik va psixologik, tibbiy, lingvistik fanlar asosida, shularga tayangan holda rivojlanib bormoqda.

#### *Foydalilanigan adabiyotlar*

- 1.Ayupova M.Y. “Logopediya”.- T.: Faylasuflar jamiyati,2007.
- 2.M.U.Xamidova “Maxsus pedagogika”.- T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018
- 3.Muborak, D., & Farangis, I. (2022). NUTQ KAMCHILIKLARINI PAYDO BO ‘LISHIDA ARTIKULYATSION APPARAT HOLATINI O ‘RGANISH ZARURATI. TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 366-370.
- 4.Qodirova, F. U., Kobilova, Sh. X. (2021). Ta‘lim klasteri asosida inklyuziv ta‘limga jalb etilgan o‘quvchilar hayot xavfsizligini ta‘minlash shart-sharoitlari. Muammo va ularning yechimlari, 2(2), 85-86.
- 5.Ghiyosiddinovna, D. M. (2023). Specific Characteristics of Logopedic Work with Blind Children. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 4(1), 101-105.
- 6.V.S.Raxmanova Maxsus pedagogika. T. 2004-yil

---

*G‘IYOSIDDINOV MUHRIDDIN QOBULJON O‘G‘LI* – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali, o‘qituvchisi.

*MASHRABBOYEVA HUSHNOZA SHOKIRJON QIZI* – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali, talabasi.

**M.Q. G'iyosiddinov, M.Sh. Shokirova**

## **TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI**

*Ushbu maqolada Ta'limdi tashkil etish shakllari va ta'lim turlari bilan tanishib chiqamiz. Ta'limdi tashkil etishdagi eng muhim vazifalar va ularning dars jarayonida qanchali ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlar jamlangan.*

***Kalit so'zlar:** na'limenti tashkil e'tish shakllari, ta'lim turlari, dasturiy ta'lim, dars, sinfdars tizimi, ta'limenti tashkil etishning yordamchi shakllari.*

Ayni vaqtida ta'limming quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: Individual, Individual guruhli, Sinf-dars, Ma'ruza-seminar, hamda Sinfdan tashqari, Auditoriyadan tashqari, Maktab va maktabdan tashqari. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarning nisbatlari, mustaqillik darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi.

1)Individual

2)Sinf-dars

3)Ma'ruza seminar

Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

-Arxaik (ibridoiy)

-Qaimgi (shumer, Misr, Xitoyda eramizan avvalgi uchinchi ming yillik)

-Avestiy (Baqtriya Sug'diyona, Xorazmda eramizdan avv. VII-VI asrlar)

-Yunon (Ellins, rim-yunon, rim eramizdan avv. V-I asrlar)

-O'rta asr (dogmonik, sxolastik, V-XVI asrlar)

-Yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, darsturlashtirilgan, masofaviy o'qitish, muammoli-dasturlashtirilgan, komputerlashtirilgan, innovatsion)

-Xorijiy( internet yordamida o'qitish)

Dasturiy ta'lim harakat ketma-ketligi tizimini ifodolovchi, ularni bajarish ilgaridan ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi, "dastur" terminidab kelib chiqadi. Ushbu turning asosiy maqsadi o'quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Bunday o'qitish tizimini asosini kibernet yondashish tashkil etadi. Unga binoan o'qitish didaktik, psixologik va kibernetik g'oyalar asosida XX asrning 60- yillari boshlarida yuzaga keldi. U O'quvchining bilim egallashi yo'lida har bir qadamini nazorat qilishga yordam beradigan va shuning asosida o'z vaqtida yordam ko'rsatish qiyinchiliklarning oldini olish qiziqishini yo'qotmaslik va salbiy oqibatlarni oldini olishga imkon beruvchi o'quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo'naltiriladi.

Dasturiy ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

-o'quv materialining asosiy qismlarga ajratilishi

-o'quv jarayoning bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha bilimlar va fikrlash amallaridan iborat bo'lgan ketma-ket qadamlardan iborat bo'lishi;

-har bir qadamning nazorat bilan yakunlanishi (savol, topshiriq, va shu kabilar)

-to'g'ri javob topganda o'quvchining mustaql ishlashi, kuchi yetadigan mavzu bo'yicha o'quv materialini egallashi;

-barcha nazorat topshiriqlari bajarilish natijalarining qayd etilishi

-o'qtuvchining ta'lim tashkilotchisi va qiyinchilik yuzaga kelganda yordamchi sifatida ishtirok etishi, individual yondashuvning amalga oshirilishi

-ta'lim jarayonida o'qitishning o'ziga xos vositalarining keng qo'llanilishi

Dars- ta'limenti tashkil etishning asosiy shakli. Dars bevosita o'qtuvchi rahbarligida aniq belgilanga vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatları va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Dars ta'limenti boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega , chunonchi: o'quvchilarning faoliyatiga ularning har bir xususiyatlarini hiobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish. Bu belgilarni faqat mazmunini emas , balki o'z xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Sinf dars tizimining mazmuni o'quv ishlarini tashkil etish o'ziga xos shakli sifatida , quyidagilardan iborat;

-Bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibni saqlab qoladi;

-Sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil qilinadi, buning natijasida bolalar matabga yilning bir vaqtini va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi;

-Mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

-Dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlanga bo'ladi, shu bois o'quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaysilar;

-Darsda o'quvchilarning ishiga o'qtuvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalari, har bir o'quvchini keyingi sinfga o'tishi gaqida qaror qabul qiladi;

Talimni tashkil etishning yordamchi shakkllari:

Interfaol ta'lim (ingl. "interact", rus. "interaktiv"; "inter"-o'zaro, act-harakat qilmoq) - talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim

Masofaviy ta'lim – muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televideniya va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini yetkazib berishda an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayoning umumiy mazmuni ya'ni avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakkllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarda, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish tadbiq etish va aniqlashning izchil metodi (yunesko)

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim- talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihatni ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat.

Muammoli texnologiyalar – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslar, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari

Hamkorlik pedagogikasi – Ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotiga asoslangan shaklda ta'lim berishga yo'naltirilgan tizim. Hamkorlik pedagogikasi o'quvchining ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tadbiq qilgan holda yuqori sifat va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- Shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;
- Dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;
- Tarbiya konsepsiysi;
- Atrof-muhitni ta'lim-tarbiyaga moslash;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quv-tarbiya jarayoning tartibli ravishta tashkil etilishi muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash, o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egalash yo'li bilan ta'limni tashkil etish , o'quvchilarnig ijodiy fikrlari va idrok etish faoliyklarini rivojlantiradi.<sup>1</sup>

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1.M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M. Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Saidahmedov. Pedagogika. Toshkent-2010

2.Abdullayeva B.S. Umumiyl Pedagogika Pedagogika Nzariyasi Toshkent-2021

---

*G'YOSIDDINOV MUHRIDDIN QOBULJON O'G'LI* – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali, o'qituvchisi.

*SHOKIROVA MAHLIYO SHUHRATJON QIZI* – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali, talabasi.

---

<sup>1</sup> Abdullayeva B.S Umumiyl Pedagogika Pedagogika Nzariyasi Toshkent-2021.

**K.M. Irisbayeva, O.I. Ismoilova**

## ZAMONAVIY O'QITUVCHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MODELI

*Ushbu maqolada o'qituvchilik faoliyatining paydo bo'lishi, rivojlanishi, kasbiy sifatlari va uning zamonaviy talqini hamda bugungi kun pedagogining qiyofasi tasvirlab berilgan.*

**Kalit so`zlar:** Muallim, fasilitator, mentor, tyutor, trener- kouch,, kasb, ta'lif, tarbiya, matonat, obro'.

“Men muallimlarning jamiyatimizdagi obro'sini oshirish haqida ko‘p o‘layman. Chunki o‘zim ko‘p yillar oliygohma domla bo‘lib ishlaganim uchun bu sohaning qanchalik qiyin va mashaqqatli ekanini yaxshi bilaman. Albatta, bu borada moddiy qo‘llab-quvvatlash muhim, lekin bu kasbning obro'sini faqat o‘qituvchining o‘zi fidokorona mehnati, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, boshqalarga o‘rnak bo‘lishi bilan oshira oladi. Biz endi jamiyatimizda o‘qituvchilarni «siz»lab, ularning sha’ni va hurmatini boshimizga ko‘taradigan, ularni tom ma’noda kelajak bunyodkorlari, deb ulug‘laydigan muhitni yaratishimiz zarur”, - deydi Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev{1.}

O‘qituvchilik kasbi qachon paydo bo`ldi va uning zamonaviy qiyofasini qanday tasavvur qilish mumkin?

**O‘qituvchi** – tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lif, umumiy o‘rta ta'lif, o‘rta maxsus, kasb-hunar hamda maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida ishlaydigan, ta'lif va tarbiya jarayoniga rahbarlik qiladigan, o‘quv, ilmiy, uslubiy, tashkiliy va rahbarlik faoliyatini amalga oshiradigan pedagog-mutaxassis.

O‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta'lif tarbiya tufayligina hayotini davom ettira oladi. Tamaddunning Ossuriya, Bobil, Misr, Turkiston, Hindiston, Xitoy singari qadimiyo‘choqlarida topilgan tarixiy madaniy obidalari bu o‘lkalarda o‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlarda shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu davrlarda eng oqil, tajribali kishilar shu ish bilan shug‘ullanishgan va ular boshqalarga qaraganda katta imtiyozlarga ega bo‘lishgan. Yunonistonda faqat ozod kishilargina o‘qituvchilik qilishga haqli hisoblangan. Ular mamlakatning turli yoshlari pedanomlar, didaskallar, pedotriblar shaklida nomlanganlar va ko‘pincha o‘z shaxsiy maktablariga ega bo‘lganlar. Boy oilalarda esa, ta'lif-tarbiya ishi bilmli va savodli qullarga topshirilib, ular paydagoglar („pedagog“ so‘zi shundan kelib chiqqan), ya’ni „bola etaklovchilar“ deb atalgan. {2.}

Sharq mamlakatlari, jumladan, Turkiston o‘lkasida ham o‘qituvchi eng qadimiyo‘va obro‘li kasb hisoblanib, „ustoz“ deb e’zozlangan. O‘lkamizda qizlarni o‘qitishga ham alohida e’tibor qaratilib, savodli ayollar uylarida otinoyi maktablari tashkil etilgan. O‘qituvchilar savyasining oshganligi millat ruhiyatida uyg‘onish bo‘lishiga, taraqqiyotning bir qadar tezlashuviga olib keldi. Sharqning buyuk allomasi, qomusiy olim Farobi yuqori muallimning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘grisida ibratli g‘oyalarni ilgari surgan. “O‘qituvchi, - deydi Forobi, - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur. Shu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi», - deb ta’kidlaydi. {3}

Farobiyning ushbu fikrlari zamonaviy o‘qituvchining qiyofasini shakllantirishda fundament bo‘lib hizmat qiladi. Shuningdek, mazkur muammo yuzasidan mulohaza yuritgan atoqli Olim Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, “O‘qituvchi matonatl, sof vijdonli, rostgo‘y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim” deb ta‘kidlashi bilan o‘qituvchining shaxsiy sifatlarini ochib beradi.{4} Ushbu fikrlar shuni anglatadiki, o‘qituvchi jamiyatning buguni va ertangi kun qiyofasini shakllantiruvchisidir. Shuning uchun ham o‘qituvchining professional jihatdangina yetuk bo‘lishi kifoya qilmaydi. Uning ma’naviy olami o‘quvchilarga singdirilishi ko‘zda tutilgan ezgu insoniy sifatlarga to‘yingan bo‘lishi kerak. O‘qituvchilar tayyorlanadigan o‘quv yurtlarida ayni shu jihatga alohida e’tibor qaratiladi. Hususan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda o‘qituvchi shaxsini yuqori bilib e’zozlanib kelayotganiga sabab ham sharafli vazifani munosib o‘tayotganlarida deb bilish mumkin. Masalan, Yaponiyada o‘qituvchi uchun alohida hurmat extirom ko‘rsatilishi kishi e’tiborini tortadi. Yaponlar ko‘p ishlashadi. Shuning uchun farzandi ta’limini o‘qituvchiga ishonib topshirishadi. O‘qituvchilar esa

bu ishonchni oqlashgan. O`zbekistonda ham bugungi kunda ushbu kasb egalariga alohida e`tibor shaxsan Prezidentimizning e`tiroflari orqali amalga oshayotgani quvonarli xol. Bugungi kunda zamonaviy o`qituvchining pedagogik-psixologik modelini shakllantirishda quyidagi tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi:

O`qituvchi-Moderator, O`qituvchi-Fasilitator, O`qituvchi-Tyutor, O`qituvchi-Mentor, O`qituvchi-Trener(kouch)

Ushbu tushunchalarga atroficha ta`rif berib o`tamiz. Moderator- o`qituvchi vaziyatni tezda boshqara oladigan va har qanday qiyin pedagogik vaziyatlardan chiqish yo`lini topishga qodir, agar kerak bo`lsa jamoadagi psixologik muxitni yaxshilay oladigan insondir.

**Fasilitator**, an'anaviy o`qituvchidan farqli o`laroq, mutaxassis emas va talabalarni o`qitmeydi, balki ularga kerakli mahsulotni yaratish uchun maxsus guruhiy ish texnologiyalari bilan ta'minlaydi. Fasilitator echim izlashda hamroh bo`lib, guruhgaga yordam beradi.

**Tyutor** (ingliz tilidagi repetitor - murabbiy, repetitor, vasiy) o`qituvchi-maslahatchi va muvofiqlashtiruvchidir. Uning maqsadi o`quvchiga iloji boricha mustaqil ravishda bilim va ko`nikmalarni olishga imkon beradigan, unga qulay bo`lgan rejimda, shu jumladan darsning o`zida o`rganish imkonini beradigan ta`lim muhitini yaratishdir.

**Mentor** (angl. – mentoring – murabbiylilik) talaba va o`quvchilardagi nazariy ma`lumotlarni amaliyatga tadbiq qila olishiga ko`maklashadi. Mentor o`quvchining “Men”ini va o`z-o`zini yuqori baholashga, o`quvchiga jamiyatda va hayotda o`z o`rnini topishishiga yordam beradi.

**Trener-bu** har bir o`quvchining (yoki umuman jamoaning maqsadlari haqida gap ketganda) kerakli natijaga erishishini ta`minlash uchun barcha mumkin bo`lgan vositalardan foydalananidan kishi. Zamonaviy o`qituvchi nafaqat o`quv faoliyatini olib borishi va muammoni hal qila olish, tadqiqotchilik, jamoada ishlay olish va samaradorlilikni ta`minlash kabi sifatlarga ham ega bo`lishini talab etiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar taxlili natijasida quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- ta`lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi lozim;
- bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi kerak;
- psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi; Kasbiy refleksiyaga ega bo`lishi muhim;
- Axborotlarni tanqidiy tahlil qila olish ko`nikmasiga ega bo`lish uchun o`z ustida tinmay ishlashi lozim.

#### XULOSA

Demak, zamonaviy pedagog har tomonlama mukammal bilim, mahorat egasi o`z mutaxassisligini taraqqiyoti uchun fidokorona mehnat qilishi o`z kasbini ilmiy rakkama qila biluvchi shaxs sifatida nomoyon bo`lishi maqsadga muvofiq.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Sh. M. Mirziyoyev.Ta`lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo`yicha video-selektor yig`ilishidagi nutqi 2020 yil 30 oktyabr
- 2.M.G.Davletshin, Sh.Do`stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To`ychieva, M. Djumabaeva “yosh va pedagogik psixologiya” (o`quv qo`llanma) T – 2007.
- 3.M. Davletshin. Zamonaviy mакtab o`qituvchisining psixologiyasi. Toshkent, 2003-yil
- 4.”Pedagogik mahorat” darslik A.Xoliqov -Toshkent- 2011
- 5.“Umumiy pedagogika” B.X.Xodjayev -Toshkent-2017
- 6.”Pedagogik atamalar lug`ati” Toshkent-2008
- 7.K.M.Irisboyeva boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslari. XXI veka N5-1 (86), aprel 2022g
- 8.K.M.Irisbayeva.Bolalarning maktabda o`qishga axloqiy-irodaviy tayyorgarligiga ta`sir etuvchi omillar. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE). VOLUME 3 ISSUE 5 MAY 2023.ISSN: 2795-8612. –P. 178-181
- 9.K.M.Irisbayeva. Ta`lim jarayonida kichik mакtab yoshi bolalarida stresslarning kelib chiqish omillari. Ученый XXI века международный научный журнал ISSN: 2410-3586. № 5-1 (96), 2023 г. –С. 71-73.

**KUNDUZ IRISBAYEVA MAMADINOVNA** – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali, o`qituvchisi.

**ISMOILOVA ODINA ILXOMJON QIZI** – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 3 kurs talabasi.

**N.A. Isroilova, S.O. Nurmuhammadova**

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING AHAMIYATI**

*Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida kognitiv faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy usullari va ulardan foydalananishning o'ziga xos tomonlar haqida fikr mulohazalar bildirilgan.*

*Kalit so'zlar:* kognitivlik, o'yin, tarbiyalanuvchilar, zamonaviy ta'lim, rivojlantirish, faoliyat, qobiliyat, shaxs.

Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.“Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi hamda Respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorining 1-ilovasiga muvofiq “Umumiylardagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida”gi Nizom qabul qilindi. Unga muvofiq: - bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash; - bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorgarligini ta'minlash; -ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish kabi masalalar belgilab qo'yilgan.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish yo'llari va usullarini o'rganish muammosi pedagogikaning muhim muammolaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Atrof-olam, dunyoning anglashga qiziqish, noma'lum narsani bilish istagi – asosan o'qitish va faoliyat samaradorligini belgilaydigan ustuvor xususiyatdir. Kognitiv harakatlarni tashkil etish bolada allaqachon shakllangan ehtiyojlarga, bu kattalar bilan muloqot qilish zarurligiga asoslangan bo'lishi kerak (harakatlar, amallar, qarorlar, fikrlarni tasdiqlash).

Hozirgi kunda kognitiv (bilish) faoliyatini rivojlantirish muammosini hal qilishning ikki yo'li mavjud: keng va intensiv. Ularning ikkalasi ham bitta yakuniy maqsadga ega: bilimli, axloqli, ijtimoiy faol, qobiliyatli shaxsni tarbiyalash. Maqsadga erishishning yondashuvlari turlicha. Keng yo'l, birinchi navbatda, bolalarga yetkazilgan bilim hajmini oshirish orqali amalga oshiriladi. Intensiv yo'l sub'eaktiv, shaxsiy manfaatdorlik pozitsiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan, va bu ta'lim dasturlari tarkibidagi o'zgarishlarni va o'qitish uslublarini intensivlashtirishni (rivojlanish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim) nazarda tutadi. Kognitiv faoliyatni rivojlantirish muammosining yana bir dolzarbli shundaki, insonning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasi faqat uning faoliyati va faolligi tufayli amalga oshadi, bu esa o'z navbatida mustaqillik va tashabbusni shakllantirishga yordam beradi.

Kognitiv faoliyat bolaning faolligini, uning bilimga bo'lgan ishtiyoqini, noma'lumdan ma'lumni aniqlashga bo'lgan harakatini ta'minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda “bilish faoliyat” tushunchasi turli talqinlarda ifoda etiladi. Kognitivlik bolaning mustaqil faoliyatga intilishini ifodalaydi, ijtimoiy tajribani, insoniyat tomonidan to'plangan faoliyat usullarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Manbalarda kognitiv faoliyat bilan bir qatorda kognitiv qobiliyat iborasi ham keng qo'llanmoqda. Kognitiv qobiliyat bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u bolaning intellektual rivojlanishi, uning atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini aniqlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Qobiliyatlar – bu insonning individual psixologik o'ziga xosligi bo'lib, ilmiy, amaliy va ijodiy faoliyatida namoyon bo'lishini hamda uni amalga oshirish muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Pedagogika va psixologyaning zamonaviy rivojlanish bosqichida kognitiv qibiliyatlar bolaning intellektual va hissiy qobiliyatlarining kombinatsiyasi sifatida tushuniladi. Kognitiv qobiliyat har qanday bilim faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ya'ni kognitiv (bilish) qibiliyatlar atrofdagi dunyoning bilishga qaratilgan, sharoit va omillar ta'siri ostida rivojlanayotgan insonning individual xususiyatidir. Bolani maktabga tayyorlash muammosi o'z dolzarbligini yo'qtmaydi. Maktabga tayyorgarlik turli tarkibiy qismalarni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Dastlab, asosiy e'tibor maktabgacha yoshdagagi bolalarga qanday bilim va ko'nikmalarni berish kerakligiga, bolani har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun qanday sharoitlar yaratish kerakligiga bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim va maktab muhitining o'zaro samarali aloqasi, kombinatsiyasi bolaning maktabgacha yoshdan maktabga o'tishini yengillashtiradi.

**ASOSIY QISM:**

Har bir inson dunyoni bilihning doimiy jarayonidadir: u boshqa odamlarning nutqini o'ylaydi, analiz qiladi, gapiradi va tushinadi, his qiladi, his- tuyg'ullarini atrofdagilar bilan baham ko'radi. Bu qobiliyatlar o'zo'zidan emas, faol bilim faoliyatida rivojlantiriladi va takomillashtiriladi. "Kognitiv faoliyat" o'zi shaxsiyatning ijtimoiy ahamiyatli fazilati bo'lib turli xil faoliyat turlarida maktabgacha yoshdag'i bolalar orasida bilim harakat usullarini o'zlashtirish va o'zini-o'zi rivojlantirish bilan shakllanadi. Kognitiv faoliyat qanday holatlarda paydo bo'ladi? Degan savol tug'iladi. Kognitiv faoliyat quyidagi hollarda paydo bo'ladi:

- O'yashga yo'naltirilganda
- Bolalar tanish materialdagi yangi narsalarni ko'ra olganda
- Tushunchalar, qonunlar, qoidalarni shakllantirilganda
- Subyekt ichidagi va mavzulararo aloqalarni topa olganda
- Amaliy faoliyatni olib bora olganda paydo bo'la boshlaydi.

SHaxs darajasida kognitiv faoliyatni shakllantirish muammosi asosan kognitiv faoliyatning motivatsiyasini va maktabgacha yoshdag'i bolalarning bilim qiziqishlarini shakllantirish usullarini ko'rib chiqish bilan bog'liq jarayondir.<sup>1</sup> Kognitiv faoliyat katta maktabgacha yoshdag'i bolalarning yangi bilim, ko'nikma, ichki qat'iyat va ma'lum bilimlarni to'plash va kengaytirish uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo'lgan qiziqishlarini anglatadi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarga kognitiv faoliyatni rivojlantirishning eng samarali tomonlari matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonlarida namoyon bo'ladi, ya'ni bolalarning yangi bilim, ko'nikma, ma'lum bilimlarni to'plash nutqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo'lgan qiziqishlarini aks ettirib beradi. Kognitiv faoliyatni natijasi, bilish qanday shaklda amalga oshirilganligidan qat'iy nazar (fikrlash yoki idrok etish orqali) olingan bilim hisoblanadi. Ijtimoiy rivojlanishning muhim bo'g'ini sifatida umuman ta'lif tizimi va makatabgacha ta'lif jamiyatning yosh a'zolarini o'qitish bosqichi desak bo'ladi. O'quv materiallari hajmining o'sish suratlari katta maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun o'qitish uslublarini qo'llash shartlarini taqazo qiladi, bunday yondashuvlar ko'pincha dastur materiallarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish va bilim darajasini oshirishga yordam bermaydi. Bolalar tomonidan kam singdirilgan materiallar yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun tayanch bo'la olmaydi. Shu kabi muamolarni yechish hozirgi kun dolzarbigicha qolmoqda. Ushbu fikrlardan kelib chiqib oldimizga bir savol qo'yaylik: Rivojlanish mazmunini qanday qilib aniqlasa bo'ladi, pedagogik jarayonlarda mashg'ulotlarda aniq nimani rivojlantirish kerak? Bunday savollarga javob beradigan bo'lsak, "Tarbiyalanuvchilar bilan suhbatni doimo ikki maqsad asosida olib borilishi kerak.

Birinchi maqsad: rasmiy bo'lib, tarbiyalanuvchining aqliy qobiliyatini uning kuzatuvchanligini, xotirasi, hayoli, fantaziysi va faxm-farosatini rivojlantirishdan iborat. Bunda bolalarga biror bir malumot beribgina qolmasdan ularga tevarak atrof haqida ham fikr mulohazalar berib borish kerak. Bunda bolalar o'zligini va dunyoni anglashga bo'lgan tasavvurlari shakllanib boradi.

Ikkinci maqsad: bu moddiy maqsad bo'lib bunda bu ta'limning mazmunidir. Ta'limning rasmiy va moddiy tomonlari bir butunlikni tashkil qilishi kerak. Ikkinci maqsadga birinchisi bilan birga erishmoq uchun "Eng avvalo kuzatish, tasavvur qilish, va fahmlash uchun predmedlar aql bilan tanlangan bo'lishi lozim doimo, maktabgacha ta'lif yoshdag'i bolalarda kognitiv faoliyatni shakllantirishdan maqsad ham mazmunli bilimga ega bo'lib maktab ta'limga aqlan rivojlangan qilib tarbiyalash hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarda kognitiv faoliyatning ahamiyati:

Bola o'sib borishi bilan kognitiv faoliyati ham rivojlanib boradi, unda murakkab elementlar paydo bo'la boshlaydi. Bunday jarayonlar tufayli turli maktabgacha yoshdag'i bola qiziqishini qondiradi, bilimlar zahirasini kengaytiradi, atrofdagi dunyo haqidagi o'z g'oyalarini o'zgartiradi. Bunday faoliyat natijasi kelajakdagi birinchi sinfga qadam qoygan bolaga makon va zamonda harakat qilishga, turli xil faktlarni bitta rasmga birlashtirishga yordam beradi.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni takidlab o'tish mumkinki maktabgacha yoshdag'i bolalarda kognitiv jarayonlarning rivojlanishi juda muhim ro'l o'ynaydi chunki o'sib borayotgan bolalarni har tomonlama kamol topishi uchun kognitiv faoliyatdan foydalanish samarali natija beradi. Har bir bolaning egallagan bilim va malumotlarini eslab qolishga va hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishiga yordam berishi zarur deb o'ylayman. "Eng katta boylik -bu aql zakovat va ilm, eng katta meros -bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik -bu bilimsizlikdir"

<sup>1</sup> Ushinskiy K.D. Pedagogika. 27-28.

*Foydalanilgan adabiyotlar*

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PR-3261-sonli Qarori.
- 2.Maktabgacha ta'lif tashkilotining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.
- 3.Abdug'opirova.F.A Elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni mantiqiy tafakkurini o'stirishga innovatsion yondashuv.
- 4.Qodirova F. R. Maktabgacha pedagogika. Darslik. -Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2019.
- 5.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitivlik>.

---

*ISROILOVA N.A.* – Toshkent Kimyo xalqararo universiteti, Namangan filiali.

*NURMUHAMMADOVA S.O.* – Toshkent Kimyo xalqararo universiteti, Namangan filiali.

**N.A. Isroilova**

## **BO'LAJAK MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIMNING AHAMIYATI**

*Ushbu maqola maktabgacha ta'lismuassasalari tarbiyachilarining kasbiy o'sishining ahamiyati, ularning yosh tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabati va ularning rivojlanishida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan boshqa muhim jihatlarni o'rganadi.*

*Kalit so'zlar: kasbiy rivojlanish, maktabgacha tarbiyachilar, o'qitish jarayoni, ta'lismaraqqiyoti, hamkorlik.*

**KIRISH.** Jahonda ishlab chiqarish va ta'larning integratsiyalashuvi jarayonida pedagog-tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlanirish, oliv ta'linda ilg'or texnologiya va dasturiy ta'lismositalardan keng foydalanish, o'qitishning an'anaviy va zamonalaviy usullarini integratsiyalash masalalari dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ishlaydigan tarbiyachi yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lishi juda muhimdir (Early, 2007). Pedagog tarbiyachilar ishtiyoqli va fidoyi bo'lishi, o'z mas'uliyatini chuqur anglashi va yuqori malakaga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilar uchun doimiy ravishda kasbiy o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini izlash muhimdir. Ular eng so'nghi tadqiqotlar va erta bolalik ta'limining ilg'or tajribalaridan xabardor bo'lish uchun doimiy kasbiy rivojlanish tadbirlarida faol ishtirot etishlari kerak. Yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z kasbi bo'yicha malakali pedagoglar nafaqat o'zlari ta'lismi -tarbiya berayotgan bolalarga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, balki maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiyo sifatiga ham hissa qo'shadi. Zamonalaviy pedagog tarbiyachilarining eng so'nghi o'qitish metodologiyalari va tadqiqot natijalaridan xabardor bo'lislari uzuksiz ta'larning sifatlari tashkil etilishi va kasbiy rivojlanishi uchun zarur. Yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va yangi pedagogik yondashuvlarni o'rganish bo'lajak pedagog tarbiyachilarga ham, ularning qo'l ostida tarbiyalanayotgan bolalarga ham katta foyda keltirishi mumkin. Bundan tashqari, boshqa pedagoglar bilan hamkorlik qilish va seminarlar yoki konferensiyalarda qatnashish pedagogik faoliyatni yaxshilash uchun qimmatli tushuncha va g'oyalarni berishi mumkin. Ta'lismudu yutuqlaridan xabardor bo'lishdan tashqari, o'qituvchilar o'z ta'lismositalini doimiy ravishda baholash va mulohaza yuritib borishlari ham muhimdir. Bu o'z-o'zini anglash, tarbiyachilarda kognitiv fikrlash hamda o'qitish strategiyalarini o'zgartirish va yaxshilashga olib keladi. Bu esa o'z navbatida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ta'lismi - tarbiyasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada, maktabgacha ta'lismi tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayni paytda ushbu tizimda, mas'uliyatli, irodali, o'z kasbiya sadoqatli, fidoyi kadrlarni yetishtirish vazifasini qo'ymoqda<sup>1</sup>.

**MUNOZARA.** Mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lismi - tarbiya jarayoniga samarali ta'lismi va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'larning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Respublikamizda ta'lismi tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayni paytda ushbu tizimda, mas'uliyatli, irodali, o'z kasbiya sadoqatli, fidoyi kadrlarni yetishtirish vazifasini qo'ymoqda<sup>1</sup>.

Maktabgacha ta'lismuassasasi tarbiyachilarilari kasbiy kompetentlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, uning o'ziga xos ijtimoiy psixologik omillariga jiddiy e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lismuassasasi tarbiyachilarilari kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

"Kompetensiya" atamasi milliy pedagogikada XX asrning 90 yillardan e'tiboran ishlatila boshlagan. "Kompetensiya" atamasi "pedagogik madaniyat", "kasbiy layoqatlichkeit", "kvalifikatsiya" atamalari bilan ma'nodosh hisoblanib kelindi.

Amerika tadqiqotchilari: Dj Raven<sup>2</sup> fikricha, kompetentlik - "shaxsning ixtisosligi bo'yicha aniq faoliyatni

© N.A. Isroilova, 2024.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lismi tizimini 2030 yilgacha rivojlanirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-4312-son.

<sup>2</sup> Дж Равен

bajarishda zarur bo'ladigan qobilyatlar majmui, malakalarning namoyon bo'lishi, mas'uliyat hissining mujassamlashuvi natijasida paydo bo'ladigan tafakkur turi" deb tavsifladilar. Samarali o'qitish amaliyotining hammasi ham ilmiy izlanishlar yoki ilg'or darajalardan kelib chiqmaydi. Ko'plab qimmatli o'qitish strategiyalari va yondashuvlari amaliy tajriba va yosh o'quvchilar uchun eng mos keladigan shaxsiy sezgi orqali ishlab chiqiladi. Rasmiy kasbiy rivojlanish va malaka oshirishga ustuvor ahamiyat berish orqali ta'lim tizimi ushbu o'qituvchilarining hissalarini kam baholab qo'yish xavfini tug'diradi va o'quv muhitini boyitishi mumkin bo'lgan o'qitish uslublarining xilma-xilligini rad qilishi mumkin (Guskey va Yoon, 2009).

**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy malakasi shubhasiz muhim bo'lsa-da, muvozanatni saqlash juda muhimdir. Pedagoglarni kasbiy o'sishida rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash kerak, ammo bu shunchaki ko'r ko'rona amalga oshirilmasligi kerak. Turli xil ta'lim darajasi va o'qitish uslublarini qadrlash yanada yaxlit yondashuvga asoslangan inklyuziv va samarali maktabgacha yoshdag'i bolalar ta'lim tizimini yaratishda foydaliroq bo'lishi mumkin.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

- 1.O'zbekiston Respublikasi maktabagcha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. PQ-4312-son.
- 2."Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi takomillashtirilgan nashri. 2022-yil 4-fevral.
- 3.Istroilova Navruza Abdulhamid's daughter ."Ispolzovanie heuristiceskogo metoda v organizatsii poznavatelno-issledovatelskoy deyatelnosti doshkolnikov". Child and time. Tashkent, 2023. - #3. Pages 48-50.
- 4.Israilova Navruza Abdulhamid's daughter. "Developing professional competence of teachers through the heuristic method." SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 9 SEPTEMBER 2023.
- 5.Israilova Navruza . The Importance of Using Heuristic Methods in
- 6.the Activities of Educators. EXCELLENCE: INTERNATIONAL MULTI-DISCIPLINARY JOURNAL OF EDUCATION. Volume 02, Issue 05, 2024 ISSN (E): 2994-9521.

---

*ISROILOVA NAVRUZA ABDULHAMID QIZI* – Toshkent Kimyo xalqararo universiteti, Namangan filiali.

**N.A. Isroilova, T.B. Abduxakimova**

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA IJODIY SIFATLARNI SHAKILLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM**

*Mamlakatimizda ta'lrim tizmiga katta e'tibor qaratilib, tarbiyachilarimizni jahon andozasi darajasida zamonaviy ,bilimli, malakali shaxs bo'lib yetishishini maqsad qilgan. Ular da insonparvarlik, kasbiy fazilatlarni singdirish, o'z kasbiga sodiq bo'lish ,kasbini sevishi, tarbiyalanuvchilarga dunyo miqiyosida bilim berish, ularning qobiliyatli va iste'dodini yuzaga chiqarish, jismomon va ma'naviy yetuk shaxslarni tarbiyalash borasida izchil ishlar amalga oshirishmoqda.*

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, qobiliyat, kommunikativlik, ijodkorlik, dil-kashlik, tafakkur, iqtidor.

Barkamol avlodni aynan kichik yoshdan tarbiyalash siyosati doirasida mamlakatimizda O'zbekiston Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta'lrim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5198-sonli farmoniga muvofiq keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lrim tashkilotlarni qurish va ta'mirlash, ilg'or tarbiya usulublari va metodikalarini joriy etish bo'yicha ko'p ishlar boshlandi. Sohoni rivojlantirish uchun xususiy sektor kirib kelishiga ham imkoniyat yaratildi. Har bir tarbiyalanuvchi bola uchun davlat budjeti hisobidan imtiyozlar berish yo'lda qo'yildi. Olis va chekka hududlarda minglab oilaviy bog'chalar tashkil qilindi. Natijada so'nggi yillarda maktabgacha ta'lrim muassasalari soni 6 barobarga ko'paydi. Tarbiyachi va pedagoglar soni ham 3 barobarga o'sib, 160 mingga yetdi. Shu tariqa, bog'cha yoshidagi 2 million 800 ming nafar boladan 2 million nafari maktabgacha ta'lrim bilan qamrab olindi. Bu borada milliy tajriba va jahondagi ilg'or yutuqlarni uyg'unlashtirgan holda ish yuritilmogda.

Maktabgacha ta'lrim tashkiloti tarbiyachisining ijodiy sifatlari birinchi o'rinda bolani yaxshi ko'rishi, o'z ishiga ma'suliyat bilan qarashi, ta'lrim tarbiya jarayonlarini talab darajasida olib borishda ijodkorona yondashishi-shi, har kunlik faoliyat mavzusi uchun noananaviy, innovatsiyalar yaratishi, ta'lrim tarbiya olib borishda ta'lrim texnologiyasi asosida ish olib borishi, rivojlanishdan orqada qolayotgan bolalar bilan mohirona, shaxsga yo'nalturuvchi ta'lrim turiga tayangan holda jarayonni tashkillashi, bolalarni nafaqat faoliyatga, balki o'ziga,jalb qila olishi,bolalarni erkin fikrlashga sharoit yaratib berishi, asosan bolalarda mukammal kompetetsiyani shakillantira olishi lozim. Ta'lrim inson faoliyatining bir turi sifatida bir necha manoni bildiradi.Ya'ni ta'lrim oluvchilardan bili,ko'nikma va malakalar hosil qilish ularda dunyoqarashni rivojlantirish faoliyatidir.

Zamonaviy ta'lrim jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchi birgalidagi faoliyatda bo'lib bu jihatdan ,u ikki tomonlama xarakterga ega. Tarbiyachi aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni singdiradi. Maktabgacha ta'linda tarbiyachining kreativ fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lrim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy tarbiyachi kreativ fikrlashi lozim ekanligi talablar doirasiga kitritilgan bo'lsa kreativlik o'zi nima?

Kreativlik bu -lotincha so'z bo'lib,”ijod” yoki “yo'q narsadan yaratish” kabi ma'nolarni anglatadi. Kreativlik –shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni,yangi g'oyalarni aks ettiradi. Tarbiyachining ijodkor va kreativ bo'lishi muhum ahamiyatga ega bo'lib, bu jihat uning ta'lrim tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarda ham ushbu sifatlarni shakillantirish va rivojlantirish muhum omil xisoblanadi.Tarbiyalanuvchilarda kreativ fikrlash va ilodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish ,rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Tarbiyachining kreativligi esa mashg'ulotda ikki xolatni kafolatlaydi. Birinchidan, past o'zlashtiruvchi tarbiyalanuvchi, ikkinchidan mashg'ulotda bir xillikdan zerikkan tarbiyalanuvchi e'tiborini mashg'ulot jarayoniga jalb etish va qiziqtirish shular jumlasidandir.

Iqtidor-bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib,insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir nechta sohada yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega ekanligi bilan belgilanadi. Psixologik lug'atda “Iqtidor “tushunchasi quydagicha ta'riflanadi. “Iqtidor” bu –faoliyatning muvaffiqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydigan qobiliyatlarining o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatdir. Pedagogik muloqot-tarbiyachining ijodiy faoliyati sifatlaridan biri hisoblanadi. Tarbiyachilar uchun eng kerakli sifatlardan biri bo'lgan muloqot tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lrim – tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil

qilishdir. Tarbiyalanuvchilar bilan qizg'in muloqot qila olishi va ularga jonkuyar, mehribon, rahbar bo'lishdir. Tarbiyachi o'z kasbiga qiziqmasa, tarbiyalanuvchiga nisbatan mehr,muhabbatli bo'lmasa,ular bilan qizg'in muloqot qila olish qobilyati,ya'ni kommunikativ xususiyatlar rivojlanmaydi.

A.N.Leontev pedagogik muloqotning tarbiyaviy –didaktik ahamiyatini baholar ekan,quyidagi fikrlarni bildiradi; Faol pedagogik muloqot,tarbiyachining ,umuman olganda pedagogning jamoaning ta'lim-tarbiya jayronida tarbiyalanuvchilarni bilish va o'rganish kaliti va o'quv faoliyatining ijodiy xarakteri,tarbiyalanuvchi shaxsining shakillanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan,ta'lim tarbiyada maqbul bo'lgan emotsiyonal muhitni ta'minlovchi,jumladan,ruhiy psixologik to'sqinlarning paydo bo'lishini oldigan,bolalar jamosida iltimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan va o'quv tarbiyaviy jarayonda tarbiyachining o'z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanish uchun muhum vositadir; deb takidlab o'tgan.

Pedagogik faoliyatda muloqot tarbiyalanuvchilarga zamon talablar asosida ta'lim berish vazifasini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'minlash tizmi sifatida namoyon bo'ladi. E'tibor berilsa, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilar tomonidan pedagogik mahorat asoslari ana shu omillarga binoan o'zlashtiriladi. Buning natijasida tarbiyachilar kelgusi faoliyatlarida ana shu mahorat asosida tarbiya jarayonlarini amalgalashiradi. Shu jihatdan amaliy faoliyatdagi tarbiyachining pedagogik mahoratini muntazam takomillashtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik mahorati uning kasbiy faoliyati samaradorligiga erishishda asos bo'ladi. Tarbiyachi bola tarbiyasida muhum ro'l o'ynaydi. Birinchidan tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan til topisha olishi kerak.U har bir tarbiyalanuvchilarning muammolarini, qiziqishlarini, ehtiyojlarini tushunishi kerak. Ikkinchidan ,tarbiyachi tarbiyalanuvchiga birinchi navbatda g'amxorlik qilishga qodir va tayyor bo'lishi kerak. Uchunchidan pedagog mutaxassis bo'lishi, ya'ni ta'lim va tarbiyaning turli usullarini egallagan bo'lishi lozim. U tarbiyalanuvchini imkon qadar maktabga tayyorlash kerak. Tarbiyachi ota - onalar bilan muloqot qila olishi, nizolarni xal qila olishi, turli fikr va istaklarni tinglay olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, bularga amal qilish maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining o'z pedagogik mahoratini takomillashtirib borishga asos bo'ladi. Chunki maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'yicha va tarbiyachilarining vazifalari bo'yicha izchil ravishda yangiliklar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik mahorati, yangiliklarni o'rganib borish bilan takomillashishni takidlab o'tish joizdir. Hozirgi zamon jamiyatining tarbiyachiga qo'yayotgan talablari juda yuqori. Uning kasbiy fazilatlari nafaqat turli usullarni qanchalik yaxshi bilishi bilan, balki tarbiyasi bilan baholanadi. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik mahorati va uni takomillashtirib borish omillari o'ziga xos xususiyatlariga egaligi bilan diqqatni tortadi. Bundan asosiy maqsad tarbiyachining yuksak darajadagi mahoratga, ijodiy sifatlarga ega bo'lishga erishishdir.

#### *Foydalilanigan adabiyotlar*

- 1.O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ2707- sonli qarori.
- 2.Qodirova M.va boshqa Maktabgacha pedagogika.-Toshkent,2019
- 3.Namozova D. Nosirov D.Makabtagacha ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish metodikasi.-Qo'qon,2016
- 4.A.Xoliquov Pedagogik Mahorat darslik"5-bob"
- 5.Isroilova Navruza Abdulhamid qizi."Использование эвристического метода в организации познавательно-исследовательской деятельности дошкольников".Бола ва замон.Тошкент, 2023. – №3. 48-50 бетлар.

**ISROILOVA N.A.** – Toshkent kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali.

**ABDUXAKIMOVA T.B.** – Toshkent kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali.

**Ф  
И  
Л  
О  
Л  
Г  
И  
Ч  
Е  
С  
К  
И  
Е**

**НАУКИ**

***A.A. Мавлонов, И.Н. Раҳимжонова***

**ТИЛ МАСАЛАСИ – МАЊНАВИЙ МУСТАҚИЛЛИКНИНГ АСОСИЙ  
ШАРТИ СИФАТИДА**

*Уишибу мақолада миллий тилни миллат мустақилигини таъминлашда тутган ўрни ва роли ҳақида атрофлича фикр билдирилган. Мақолада миллий тилни миллат ва давлат мустақилигини мустаҳкамлашдаги аҳамияти илмий манбалар орқали далилланган.*

Миллий ўзлигимизнинг энг ноёб белгиларидан бири бўлган соф адабий тилемиз кўзимизнинг гавҳаридай асрариши лозим. Адабий тилемизнинг нурли манзаралари, тарбиявий қудрати, миллий маданиятимиз юксалишидаги вазифаларнинг улуғорлигини англаш, ҳаётда тадбиқ қилиш- инсоний бурч ва садоқатимизнинг белгиларидан биридир<sup>1</sup>.

Бугун давлат тили хукумат аралашувига муҳтож. Негаки, айнан давлат идораларида ҳали-ҳамон рус тилида иш юритилади. Табиийки, бу ҳол мањнавий жиҳатдан тугал озод бўлолмаётганимизни кўрсатади. Зеро, тил миллий давлатчиликнинг асосий унсури бўлиб қолмай, халқнинг, миллатнинг ўзига бўлган хурмати миқдорини ҳам ифода этади. Шу ўринда маърифатпарвар бобомиз Алихонтўра Соғунийнинг куйидаги фикри эътиборга молик: “Арабча, форсийчаларни ёзиш-сўзлашгина эмас, балки, бу икки тилда китоб ёзиш, шеър айтиш қобилияти менда бўлса ҳам, ўз туркий она тилемни бошқа тиллардан ортиқроқ кўрдим. Чунки, қайси бир миллатнинг она тили ўз ҳожатини ўтаялмай, бошқа ёт тиллар олдида мағлубиятга учраб тиз букар экан, ундей миллат кўп узоқламай, инсоний туйғуларидан ажраган ҳолда ҳаёт

© А.А. Мавлонов, И.Н. Раҳимжонова, 2024.

<sup>1</sup> Жуманов И. “Бадиий сўз махорати” – Тошкент: “АБУ МАТБУОТ–КОНСАЛТ”, 2015. – Б.68.

дафтари устига инқироз қалами чекилиши шубҳасиздир. Ундей миллатлар ёлғизгина Ватанларидан эмас, балки бутун борлиғи билан тарих юзидан йўқолишига мажбур бўлади". Бу хаётда ўз тасдиғини топган ҳақиқатдир. Шу боис миллий манфаатлари тўкис таъминланган деб айтилувчи АҚШда ҳам бу масалага жиддий эътибор қаратилган. Хусусан, йирик сиёсатшунос Патрик Бюкенен Америка инқирози ҳақида гапириб, бир ўринда шундай дейди: "... Мамлакат мактабларида фақат инглиз тилида дарслар боришини талаб қилишимиз шарт. Чунки икки тилллилк, маълум маънода бир давлат ҳудудида икки маданият, ҳатто икки мамлакат борлигини англатади.... "<sup>1</sup>.

Шўровий тузум замонида зўравонлик, террор ҳамда ижтимоий адолатнинг узлуксиз равишдаги бузилиши жамият ҳаётининг барча соҳаларига хос эди. Бу муаммо ҳақида ортиқча фикр-мулоҳазаларни билдириб ўтирасдан, ҳозирча фақат биргина мисол – Ўзбекистонда, ўзбекларнинг ҳаётида ўзининг тилини кўллаш доирасининг доимий равища чеклаб борилганини эслашнинг ўзигина кифоя қиласа керак. Тарих мулкига айланиб бўлган XX аср 60- йилларидан бошлаб, бошқа чет юртларда эмас, айнан Ўзбекистоннинг ўзида ўзбекнинг она тилининг кўлланиш доираси ижтимоий-сиёсий ҳаётда ўзаро мuloқot воситаси сифатида рус тилидан тобора янада кўпроқ фойдаланишни кенгайтириш ҳисобидан анчагина қисқартирила бошлаган эди. 1961 йилда партия XX съездиде ғоятда катта тантаналар билан қабул килинган КПССнинг янги программаси (дастури)да рус тили совет халқининг миллатларро мuloқot воситаси эканлигиям расмий равиша эълон қилинганди. Шундан кейин ўзбек мактабларида ўзбек, яъни – она тилини ўқитиш ва ўргатиш соатлари аста қисқартирилиб, рус тилини ўқитиш соатлари эса аксинча, кўпайтирила бошлаганди. Заводлар, фабрикаларда, корхоналар, муассасалар ҳамда партия-совет ташкилотларида иш юритиш ҳужжатлари тўла рус тилига кўчирила бошланди. Олий ўкув юртларида ҳам (педагогика институтларидан ташқари) талабаларга 3- курсдан бошлаб, дастлаб айрим предметлар, сўнгра бошқа фанлар ҳам фақат рус тилида ўқитила бошлаганди. 1975 йилга келиб эса СССР Олий аттестация комиссияси фан номзодлиги ҳамда докторлиги диссертациялари фақатгина рус тилида ёзилиши лозимлиги тўғрисида маҳсус қарорини ҳам чиқарган эди<sup>2</sup>.

Биз ўз тилимизда сўзлашдан истиҳола қиласига даражага тушиб қолмаслигимиз керак. Шиддатли замон эса бизнинг бу майлнимиз билан ҳисоблашиб ўтирмайди. Тил бобида жаҳонда кечётган глобаллашув жараёни жўн ва беозор ҳодиса эмас. Етакчи тилларнинг гегемонлашуви нафақат ўзга тиллар ривожига, балки туб жой аҳолининг таълим, маданият ва маърифат борасидаги ислоҳотларига ҳам салбий таъсир кўрсатмай қолмайди. Биз бунга гувоҳ бўлиб турибмиз. Ўзбекча талаффуз бузилиб кетаяпти. Теле ва радио бошловчилари ўзбекча талаффуз қоидаларига риоя этмайди. Улар тилимиздаги лутф, самимият ва латофат каби инжа санъат ҳақида ўйлаб ҳам кўрмайди. Мана, бир неча йилдирки, Санкт-Петербургда "Говорите правильно" деган лойиҳа ишлаб келади. Бу Москвада ҳам кенг қанот ёйган. Россия Федерациясида нутқ маданияти бўйича Кенгаш ҳам қатъий фаолият кўрсатмоқда. Ўн икки йилдирки, сўкиниш маъносидаги сўзларни ишлатгандар жаримага тортилади. Шундай конун мавжуд. Францияда эса, ўтиз йилдирки, миллий тилни асраб-авайлаш бўйича конун иш кўради. Унга нисбатан ҳурматсизлик кўрсатса, ким бўлишидан қатъи назар қонун олдида жаримага тортилади. Белгиланган тартибга кўра, кўчадаги ёрликлар миллий тилда ёзилади. Давлат телеканаллари деярли Америка киноларини намойиш этмайди, уларнинг кўшикларини бермайди<sup>3</sup>.

Шу сабабдан ҳам буюк тараққийпарвар жадид боболаримиздан бири Абдулла Авлоний юртимиз ахлини келажакда бу борада дуч келишимиз мумкин бўлган хавф-хатарлардан жиддий огоҳлантириб, шундай ёзганди: «Биз туркистонликлар миллий тилни сақламоқ бир тарафда турсин, кундан-кун унутмоқ ва йўқотмоқдамиз. Тилимизнинг ярмига арабий-форсий уланган, илмоқ қилиб унинг бир четига рус тилини ҳам ёпиштирмоқдадурмиз. Яхши кўшнингдан олгунча, ёмон уйингни қидир, демишлар. Бизнинг боболаримизга етушғон ва ярагон муқаддас тил ва адабиёт бизга (ҳам) ҳеч камлик қилмас. Ўз уйимизни қидирсан, ахтарсан йўқолганларини ҳам топармиз... Умумий миллий тилни сақламоқ ила баробар хусусий, оғзимиз орасидаги тилни ҳам сақламоқ лозимдур».

Чор Россияси генерали Михаил Скобелев (1843–1882) бўлса айнан бу хусусда шундай ёзган эди: «Миллатни йўқ қилиш учун уни асло кириш шарт ҳам эмас, унинг маданиятини, санъатини, тилини йўқ қилсанг бас, тез орада ўзи тўла таназзулга учрайди».

Бундай ёвузликнинг моҳиятини теран англаған маърифатпарвар зиёлилар – жадидлар миллатнинг маданияти, санъати ва тилини асраб қолиш, халқнинг кўзини очиш мақсадида газета, театр, мактабларни очиб эл-юртга илм-маърифат, зиё тарқатишга киришганлар. Халқнинг ўзлигини англашга интилишидан

<sup>1</sup> [www.kun.uz](http://www.kun.uz) // Ўрол Содик. Миллий мағкуруни қайта кўриб чиқиш вақти келмади...ми?

<sup>2</sup> Исоков Б. Истиқлол – истиқбол ибтидоси – Наманганд, 2017. – Б.65.

<sup>3</sup> [www.kun.uz](http://www.kun.uz) // Ўрол Содик. Миллий мағкуруни қайта кўриб чиқиш вақти келмади...ми?

ва жадидларнинг фаоллашувидан жиддий тарзда, ўта хавфсираган Туркистон генерал-губернаторининг маҳфий бўйруғи тайёрланиб, вилоят ва волостларга юборилган эди.

Бўйруқда улар мактабни очмоқчи эканларми – рухсат берилсин, дарслик яратмоқчиларми – бемалол ёзаверсинлар. Аммо, битта шарт билан: ҳар бир вилоят мактабларида дарслар ўша ернинг лаҳжасида олиб борилсин, яъни шевасида ўтилсин. Дарслик ва қўлланмалар ҳам ўша шевада ёзиладиган бўлсин. Маҳфий бўйруқдан кўзланган асосий мақсад – ўзбек адабий тилининг яратилишига мутлақо йўл қўймаслик эди. Ушбу ҳужжатда барча ўзбекларни бирлаштиришга холис хизмат қилаётган адабий тилимиз Россия империясининг ижтимоий-сиёсий манфаатларига бутунлай зид эканлиги очиқдан-очиқ қайд этилганди...

Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар»ини ўқимаган ўзбекнинг ўзи бўлмаса керак. Асарнинг аксарият воқеалари Тошкентда кечган. Юсуфбек Ҳожи, Отабек, Ҳасанали ва бошқалар, агар асар муаллифи хоҳлаганида, тошкентчасига гаплашишган бўларди. Лекин, ўзбекнинг буюк ўғлони – Абдулла Қодирий бутун ўзбек элини бирлаштириш воситаси сифатида адабий тилга таянган ҳолатда ўз сохир қаламини тебратган ва ўзининг энг муқаддас зиёлилик бурчини адо этган эди.

Аслида-ку, «Қардош тилин билмоқ – қадрдонлик белгиси»дир. Лекин, ўзининг она тилини бутунлай унудиши хисобига, қардошнинг, дўст-биродарнинг тилига мурожаат қилингудек бўлса, ундаи холатда тенглик, дўстлик, биродарлик деган улуғ тушунчалар қаерда қолади?

1938 йил 13 марта «қадрдон», «улуг оғаларнинг» жиловидаги ВКП(б) Марказий Кўмитаси ва Халқ комиссарлари совети томонидан «Рус тилини миллий республика ҳамда вилоятларнинг мактабларида мажбурий ўқитиш ҳақида»ги қарор қабул қилинган. Орадан бир ойча муддат ўтар-ўтмасдан туриб, худди шундай мазмундаги «оламшумул ва буюк, тарихий» қарорлар барча иттифоқдош республикаларда ҳам «хурсандчилик билан, ихтиёрий равишда» қабул қилирлганди<sup>1</sup>.

Инсониятни теран мушоҳадага, ҳаёт фалсафасини чуқур англашга, дунё тамаддунида илдиз олиш таҳдиidi бўлган иллатларга ўткир тафаккур ва қалб нигоҳи билан қарапашга, мислсиз фожеалар бўлишига йўл қўймасликка, комил инсон бўлиш, яшаш учун курашга чорлаш тилимиз орқали намоён бўлади<sup>2</sup>. Аслида, бу ёргу оламда ҳар биримизнинг тўрт онамиз бор. Улар – бизни дунёга келтирган онамиз, она замин, она тарихимиз ва она тилимиз. Уларнинг ҳар бирини бўлса кўз қорачиғидек асрар-авайлаш, дардига дармон бўлиш ҳар биримизнинг чин фарзандлик бурчимиш. Тилининг ҳимояси бугун қонун қабул қилинганидан бўён 30 йилга яқин вақтлар ўтган кунларда ҳам Ватан ҳимояси сингари ғоят долзарб аҳамият қасб этмоқда.

Она тилининг тарбияловчилик ва жамиятда маънавий-маърифий мувозанатни сақловчилик қурати ҳақида ўта «кўп ва хўб» гапириш, ёзиш мумкин. Америка социологлари аниқлаган маълумотларга кўра, қаерда миллатнинг ўз тарихий илдизларидан қўпорилиши қўпроқ бўй қўрсатса, қаердаки она тилининг қўлланилиш доирасининг торайиши кузатилса, ўша минтақаларда жиноятчилигам авжига чиқади<sup>3</sup>, чунки у жойлардаги маънавият дунёси бениҳоя ҳалокатли даражада тораяди, қашшоқлашади, ҳатто маънавий мажруҳлик ва таназзул юзага келади.

Инсон дунёни кўзи билан эмас, балки тили билан кўради! Бошқача қилиб ифодалаганда, ҳар бир тил вакили дунёни ўз тили мантиғидан келиб чиқиб фарқли тарзда кўради, эшитади ва идрок этади.

Бугунги кунда Курраи заминдаги 7000га яқин тил бўлса, улар ҳуқукий мақоми, жаҳон аренасида тутган ўрни, қўлланиши доирасига кўра учта турга, яъни ҳалқаро тиллар (инглиз, француз, испан, рус, араб, португал, немис тиллари), давлат тили (ўзбек, қозоқ, болгар ва бошқа тиллар), маҳаллий тиллар (на ҳалқаро ва на давлат тили деган мақомга эга бўлган турли-туман тиллар: хакас, юкагир, орочи, ненец, апачи, долган, мамак, семанг, семинол, тода каби тиллар)га бўлинади.

Турган гапки, ҳар бир ҳалқ ўз она тилининг юқори поғоналарга қўтарилишини чин дилидан истайди<sup>4</sup>. Агар маҳаллий тил даражасида қўлланаётган бўлса, чинакам давлат тили мақомига қўтарилиб олиш, модомики давлат тили деган мақомга эга бўлса, уни ҳалқаро даражага қўтариб олиш мақсадида тинимсиз тарзда олға интилаверади<sup>5</sup>.

Академик Азиз Қаюмов дейдиларки: “Навоий асарлари чет тилларига таржима қилиниши керак. Бу ишлар эса қисман амалга оширилган бўлса-да, етарли эмас. Лекин, мени жуда қийнайдиган бошқа масала бор. Биласизки, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти деган ҳалқаро ташкилот бор. Нега унинг расмий

<sup>1</sup> Исоқов Б. Истиқлол – истиқбол ибтидоси – Наманган, 2017. – Б.67-69.

<sup>2</sup> Жуманов И. “Бадиий сўз маҳорати” – Тошкент: “ABU MATBUOT-KONSALT”, 2015. – Б.51.

<sup>3</sup> Mavlonov, A. (2021, June). WATER CULT IN ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS (Based on materials from the Fergana Valley). In Конференции.

<sup>4</sup> A. Mavlonov, & S. Mirzohidov (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. Science and innovation, 3 (C1), 5-7. doi: 10.5281/zenodo.10471818

<sup>5</sup> Исоқов Б. Истиқлол – истиқбол ибтидоси – Наманган, 2017. – Б.94.

тиллари ичидә бирорта ҳам туркий тил мавжуд эмас. Агар, бўлса эди, бутун дунё ўқувчилари буюкларимизнинг асарларини ҳам аслиятдан ўқишига ҳаракат қилган бўлар эди. Агар менга битта туркий тилни сайлаш ҳуқуки берилганида эди, мен сирам иккиланмай туриб, bemalol ўзбек тилини таклиф этар эдим. Ахир бу тил шу кунларгача тўртта алифбони бошидан кечирди. Грамматика ва орфографияси бехад мукаммал даражада ишлаб чиқилган бундан бошқа тилнинг ўзи ҳам йўқ”<sup>1</sup>.

Севимли шоиримиз Эркин Воҳидов ўзбек тилининг ҳозирги ҳолати ҳақида сўз юритар экан, шундай фикрини билдирган эди: «Ўзбек тилининг бугунги даражаси, туркий тиллар ичидә тутган мавқеи учун биз кўп жиҳатдан ўтган аср бошида яшаган зиёли боболардан миннатдор бўлишимиз даркор. Улар ўзбек тилининг сўз ясаш имкониятларидан жуда дадиллик билан фойдаландилар, ҳалққа миллий ғурур ҳам да она тилига ҳурмат туйғусини тарбия қилдилар»...

Дунёдаги барча тилларнинг бор-йўғи 400тасигина ўз ёзувига эга, давлат тили мақомига эга бўлганлари бўлса жудаям оз, яъни бор-йўғи 100тагина, холос.

Бугун жаҳоннинг барча юртларида адабий тилдан жуда тор доираларидагина фойдаланилади. Кейинги пайтларда эса яна ҳам мужмалроқ «планктон» тили аста-секин, янада аниқроғи, шиддат билан шаклланиб бормокда. Ҳаттоқи интернетда бу тилдан кенг фойдаланилади. Нега? Чунки, биз интернетда ишлаш учун пул тўлаймиз. Вакт ва пулни иқтисод қилиш учун оддий ва жайдари гаплар, қисқартма терминлар ва абревиатуралардан самарали тарзда фойдаланиш ниҳоятда авж олиб кетди ҳамда бу амалиёт аллақачон ўзига хос тартиб-қоидага айланиб улгурганилигини эса ўзингиз ҳам ўта яхши биласиз. Бизда интернет тилини компьютер соҳасидаги барча мутахассислар, ўсмиirlар, студентлар ва идора хизматчилари самарали ишлатадилар. Назаримда, келажакда бу тилдан фойдаланувчилар доираси янадаим кенгайиб бораверади. Глобаллашувнинг таъсири ҳам ана шу бўлса керак-да! Ишқилиб, бора-бора ёшларимиз «4» рақами кириллча «ч» ёки «ш» ҳарфи лотинча «w»дан келиб чиқсан деб ўйламасалар бўлди». Телевизорни кўриб ўтириб ёки уни томоша қилиб, радиони тинглаб, турли-туман ҳуқуқшунос, шифокорлар, олимлар, давлат арабблари, муҳандислар, молиячилар, солик идораси ходимлари ва ҳоказо, ҳоказоларгина эмас, ҳатто сухандонлар, муҳарирлар ва бошқаларнинг ҳам пойинтар-сойинтар жумлаларини эшитиб, гапнинг эга-кесимини мутлақо мувофиқлаштира олмаётганлари, жумланинг эса боши билан охирини бир амаллаб қовуштиришга курби етмаётганига гувоҳ бўлиб, тепа сочинг тикка бўлиб кетади. Буларнинг бари элу юрт кўз ўнгидаги она тилимизни тап тортмай таҳқиrlаш, хўрлаш, Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги конунини сира ҳайиқмай бузишдан ўзга нарса эмас-ку!

Телевизорни очинг. Эрталабдан қора кечгача Голливуд, Болливуд, корейс, хитой фильмлари. Нега шундай?.. Афсуски, бунга ҳаммамиз кўнишиб кетганмиз. Миллат тўлақонли бўлса, теварак-атрофда рўй беряётган воқеа-ходисаларни идрок этиш, нотинч ва долғали замонда содир бўлаётган кулфат ва мислсиз фожиалар илдизига бориб этиш, ундан ибратли хулоса чиқариш бобида ҳам уйғунлик ва бир бутунлик ҳукм суради. Умумийлик асосини эса фикримизни баён этувчи она тили ташкил этади. Ҳар бир миллат ўз она тилида ўйлади, воқеликни мушоҳада этади. Нуктаи назар шундай шаклланади. Адабиёт ва санъат ҳам, илм-фан ҳам, давлат бошқаруви тизими такомили ҳам, умуман, тараққиёт мазкур умумийлик ва интилиш ҳосиласидир. Шу ўринда “Изоҳли луғат”да “тафаккур” сўзига берилган таърифи эслаш жоиз. Айтишларича, у – “тушунча” ва “ўйлаш”. Наҳот тилимиз шунчалар қашшоқ бўлса? Мана, ҳолимиз-аҳволимиз. Тилимизнинг илмий-ифодавий қатлами ҳамон шаклланган эмас. Бу ҳақда ўйлаб ҳам кўрилмаётгани ачинарли, албагта. Тан олайлик, бугун тилимиз адабиёт ва санъат оламида мавжуд, холос. Бу тилда на фалсафа, на тарих, на журналистика ва на илм-фан яратилгани йўқ<sup>2</sup>.

Миллатнинг ҳамма нарсаси олиб қўйилса, эртага унинг ўрнини тўлдириш мумкин. Аммо, унинг миллий тили бузилса, олиб қўйилса, йўқотиб юборилса, у миллатнинг руҳини тортиб олиш билан баравар хисоби. Аслида тилни менсимаслик миллатни менсимаслик, Ватанини менсимасликни кўрсатадиган ўта нохуш ҳолдир. Бундай шароитда асарининг тили устида заргардек кунт билан ишлайдиган, шу билан тилимизнинг имкониятлари нақадар чексиз эканини намоён этадиган ҳар бир ижодкорнинг фаолияти жуда катта таҳсинга сазовордир.

Тил – миллатнинг ҳақиқий, чинакам қалб тори. Унга сира ҳам озор бермаслигимиз, аксинча, унинг тинимсиз равища сайқал топиб, жилоланиб боришига эришмоғимиз даркор. Чунки, тил – миллатнинг буюк ўтмиши, бугуни ҳамда порлок келажаги ҳисобланади<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> “Ёш куч” журнали. 2016 йил, 9-сон. – Б. 33.

<sup>2</sup> [www.kun.uz](http://www.kun.uz) // Ўрол Содик. Миллий мағкуруни қайта кўриб чиқиш вақти келмади...ми?

<sup>3</sup> Ahmadaliyev, M. (2021). RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI INTEGRATSIYASINI TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI. Axmadaliev Murodjon Ulug'bek o'g'li. (2022). THE ROLE OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6605983>

Халқ бамисоли улкан дараҳтдай, тил бўлса унинг яшнаб турган япроқлари дир. Демак, дараҳт омон бўлса ва униб-ўсиш, юксалишга мойил бўлса, унинг япроқлари янада кўпаяди ҳамда ҳаётий жило ва ранглар билан тўлишиб, тобора яшнайди. Мустақиллик халқимизни ғафлат уйқусидан уйғотди, уни эркин, озод ва барк уриб ривожланиш имкониятларига тўла-тўқис эга қилди. Миллӣ истиқлол туфайлигина халқимиз тараққий этишининг куч-кудратига эга бўлган экан, унинг улуғ, буюк тили ҳам шак-шубҳасиз, тобора равнақ топиб бораверади<sup>1</sup>.

Қадимги Хитойнинг улуғ мутафаккири Конфуцийдан «Агар Сизга маҳсус ваколат бериб, нималарни кечиктириб бўлмайдиган устувор вазифа деб ҳисоблаган бўлар эдингиз», деб сўрашганида, донишманд «Тилни тартибга келтириш энг зарурий вазифадир», деб жавоб берган, фикр-мулоҳазаларини қуидагича ифодалаган экан: «Агар нутқ воситалари тартибга келтирмаган бўлса, турли нарсалар ўртасидаги тартибда ҳам уйғунлик йўқолиши мумкин. Ўзаро уйғунлик мавжуд бўлмаган жойда вазифаларни самарали равишда амалга ошириб ҳам бўлмайди. Бу амалда бажариладиган ишларнинг чинакам кафолати ҳисобланади-да. Қилинадиган бари саъй-ҳаракатларнинг амалга ошиши кафолатланмас экан, турган гап-ки, маданият ва мусиқа ҳам мутлақо гуллаб-яшнамайди. Агар маданият ҳамда санъат гуллаб-яшнамаса, хуқукий тартиботга ҳам анча-мунча путур етади. Хуқукий тартибот ишламай қолса, халқ қўли ва оёғини ишлатишни билмай қолади. Демак, тил айтилган ишни тўғри амалга ошириш учун керак. Шунинг учун ҳар қандай оқил инсон бу ишни ниҳоятда муҳим ва долзарб деб билади». Жуда кўп асрлар муқаддам айтилган ушбу пурмаъно сўзлар бугунги беҳад мўрт, таҳликали, мураккаб ҳаётимизнинг ҳақиқати эканлигига сира шак-шубҳа бўлиши ҳам мумкин эмас.

---

*МАВЛОНОВ АДҲАМ АНВАРХАНОВИЧ* – Тошкент Кимё Халқаро университети, Ижтимоий гуманитар фанлар кафедраси, Катта ўқитувчиси.

*РАҲИМЖОНОВА ИРОДАБОНУ НОДИРБЕК ҚИЗИ* – Тошкент Кимё Халқаро университети, Тарих йўналиши 2-курс талабаси.

---

Axmadaliev M.U. (2022). TIMSS TADQIQOTINING eTIMSS DASTURIGA TAYYORGARLIK KO'RISHNING AHAMIYATI // Интернаука: электрон. научн. журн. 2022. № 2(225). URL: <https://internauka.org/journal/science/internauka/225>

<sup>1</sup> Исоков Б. Истиқлол – истиқбол ибтидоси – Наманган, 2017. – Б.99.

## Информация для авторов

Журнал «Вестник магистратуры» выходит ежемесячно.

К публикации принимаются статьи студентов и магистрантов, которые желают опубликовать результаты своего исследования и представить их своим коллегам.

В редакцию журнала предоставляются **в отдельных файлах** по электронной почте следующие материалы:

1. Авторский оригинал статьи (на русском языке) в формате Word (версия 1997–2007).

Текст набирается шрифтом Times New Roman Cyr, кеглем 14 pt, с полуторным междустрочным интервалом. Отступы в начале абзаца – 0, 7 см, абзацы четко обозначены. Поля (в см): слева и сверху – 2, справа и снизу – 1, 5.

**Структура текста:**

- **Сведения об авторе/авторах:** имя, отчество, фамилия.
- **Название статьи.**
- **Аннотация** статьи (3-5 строчек).
- **Ключевые слова** по содержанию статьи (6-8 слов) размещаются после аннотации.
- **Основной текст статьи.**

Страницы не нумеруются!

Объем статьи – не ограничивается.

В названии файла необходимо указать фамилию, инициалы автора (первого соавтора).

Например, Иванов И. В.статья.

Статья может содержать **любое количество иллюстративного материала**. Рисунки предоставляются в тексте статьи и обязательно в отдельном файле в формате TIFF/JPG разрешением не менее 300 dpi.

Под каждым рисунком обязательно должно быть название.

Весь иллюстративный материал выполняется оттенками **черного и серого цветов**.

**Формулы** выполняются во встроенным редакторе формул Microsoft Word.

2. Сведения об авторе (авторах) (заполняются на каждого из авторов и высыпаются **в одном файле**):

- имя, отчество, фамилия (полностью),
- место работы (учебы), занимаемая должность,
- сфера научных интересов,
- адрес (с почтовым индексом), на который можно выслать авторский экземпляр журнала,
- адрес электронной почты,
- контактный телефон,
- название рубрики, в которую необходимо включить публикацию,
- необходимое количество экземпляров журнала.

В названии файла необходимо указать фамилию, инициалы автора (первого соавтора). Например, Иванов И.В. сведения.

**Адрес для направления статей и сведений об авторе: [magisterjourn@gmail.com](mailto:magisterjourn@gmail.com)**

**Мы ждем Ваших статей! Удачи!**